

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi
Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti

Musiqqa, badiiy grafika mehnat ta'limi fakulteti
«Kasbiy ta'limni o'qitish metodikasi» kafedrası

Karimova Moxigul
«O'quvchilarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda moddiy
qadriyatlardan foydalanish metodikasi »

5142000- mehnat ta'limi yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ish ko'rildi va himoya

Qilishga ruxsat berildi

«Kasbiy ta'limni o'qitish
metodikasi kafedrası

Mudiri, p.f.n. dots.

_____ **B.I.Muranov**

Ilmiy rahbar p.f.n. dots

_____ **B.I.Muranov**

«__» _____ 2014 y.

Taqrizchilar: p.f.n. dots.

_____ **B.B.Doniev**

p.f.n. dots. A.A. Abdumannotov

«_____» _____20__y.

SAMARQAND-2014

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda xalq hunarmandchiligi misolida moddiy qadriyatlardan foydalanishning tarixiy taraqqiyoti.	13
1.1. Adabiyotlar tahlili. Mehnat va kasbga tayyorgarlikni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan (xalq hunarmandchiligi misolida) foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.	13
1.2. Gilam to'qish san'ati	20
1.3. Gilamchilik respublikamizda engil sanoatning muhim tarmoqlaridan hisoblanadi.	23
1.4. Gilamlar turlari va tayyorlash texnologiyalari	26
II BOB Umumiy o'rta ta'lim tizimida moddiy qadriyatlar sifatida xalq hunarmandchilini o'rganishning mazmuni va tuzilishi	38
2.1. Mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligining moddiy qadriyatlar sifatida o'rganish va o'rgatishning ahvoli.	38
2.2. 1-9 – sinflar mehnat ta'limi mashg'ulotlarida xalq hunarmandchiligini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.	45
2.3. Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning mehnat amaliyotini o'tkazishga doir tavsiyalar.	53
Xulosa.	60
Tavsiyalar	61
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.	62

KIRISH

Muammoning dolzarbligi. O'zbekiston Respublikasi mustaqil davlat sifatida shakllanayotgan sharoitda yoshlarning mehnat va kasblarga tayorgarligi, tarkibi, ta'limi jarayonini tubdan isloh qilish bugungi kunning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Jamiyatimizda yuz berayotgan turli ijtimoi-iqtisodiy o'zgarishlar taraqqiyotning barcha qirralariga ta'sir etmasdan qolmaydi. Moddiy hayotimizdagi bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari, xususiy mulkchilikning yuzaga kelishi, davlat tasarrufidagi ishlab chiqarish va mehnat muassasalarining mazmunan va shaklan o'zgarib, shirkat, fermer xo'jaligi, qo'shma, kichik korxonalarning yuzaga kelishi, ijtimoiy mulkni ishlab chiqarishning davlat tasarrufidan chiqarib, xususiylashtirilishi, mahsulotlarni bevosita bozorga raqobatbardosh, xaridorbop, sifatli qilib tayyorlash va sotish, mehnat va kasb-hunar bozorining vujudga kelishi va boshqalar mehnat va kasblarni o'rganishga munosabatlar mazmuni va maqsadini tubdan o'zgartirib yuboradi.

Yoshlarni milliy qadriyatlarimiz va ma'naviy, madaniy merosimizni o'rgatish borasida mutaxassislar, olimlar va mutasaddi tashkilotlar xodimlari tomonidan olib borilayotgan tadbirlarni davlat va xukumatimiz tomonidan qo'llab-quvvatlanishi, hamda rag'batlantirilishi ta'lim-tarbiya jarayonining tubdan isloh qilinayotganligining amaliy isbotidir.

O'zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» va «Ta'lim tug'risidagi» Qonun jahon taraqqiyoti talablariga muvofiq holda tayyorlangan bo'lib, milliy tajribaning tahlili va ta'lim-tarbiya tizimida tahsil olayotgan yoshlarni yuksak umumbashariy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda to'g'ri yo'lni tanlay bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va amalga oshirishga qodir qadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir. Yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligi deyilganda, ularni mehnat jarayonning maqsad va vazifalari, xususiyatlari, sharoitlari, kishilar bilan tanishtirish, turli xil kasb-hunarlar tug'risida ma'lumotlar, axborotlar berish, to'g'ri kasb tanlashlariga sharoit yaratish kabi turli xil tadbirlar majmuasini tushunamiz. Yoshlarning mehnat

va kasb tayyorgarligiga mehnat tarbiyasi, mehnat ta'limi, kasbiy maslahatlar, axborotlar, ma'lumotlar, kasbga yo'naltirish, kasb tanlashlari, egallashlari va kasblarga moslashishlari kiradi. Shuningdek o'quvchi yoshlarning mehnat jarayonining xususiyatlari, kasb-hunarlarining paydo bo'lishi tarixiy rivojlanishi to'g'risidagi bilimlari, umumiy mehnat, ish-harakatlarining dastlabki amaliy ko'nikma va malakalarini egallab borishlari ham ana shunday tayyorgarlikning qismlaridan hisoblanadi.

Xalqimiz xalq sifatida shakllanganidan buyon o'z kelajak avlodiga mehnat jarayoni va kasb-hunarlar sir-asrorlarini o'rgatish, ularni biror kasb-hunarni egallashga undash bilan shug'ullanib keladi.

Bu haqda turli xil tarixiy toshbosma, qo'lyozma, yozma manbalarda turli xilda va xilma-xil tillarda ma'lumotlar saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyo mutafakkirlaridan Ibn Muso al-Xorazmiy, Ibn Ismoil al-Buxoriy, Ibn Iso at-Termiziy, ibn Kassir al-Farg'oniy, Abu Nsr al-Farobiy, Abu rayhon al-Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, YUsof Xos Xojib, Xubaysh ibn Ibrohim ibn Muhammad at-Tiflisi, Maoniy Kaykovus, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Umar ibn Ibrohim Hayomiy, Muslihiddin Sa'diy Sheroziy kabi allomalar o'z ijodlari, asarlari bilan o'z xalqlarining, vatanlarining shuhratini olamga tanitdilar. Ular o'z ijodlarida insoniyat, jamiyat taraqqiyotining turli muammolarini, insonning shakllanishi omillari, ta'lim-tarbiya masalalari, insonning ijobiy va salbiy fazilatlarini, xislatlari, xulqi, odobi, ichki dunyosi, tashqi go'zalligi, mehnati, jumladan kasbi, hunari mashg'ulotlari to'g'risida ham fikr yuritilgan o'lmas asarlar, dostonlar yaratdilar. Umuman olganda, Sharq mamlakatlari, jumladan, O'rta Osiyo davlatlari: Movarounnahr, Xuroson, Eron, Turon davlatlari allomalarining madaniy, tarixiy, ma'naviy meroslari, shaxsni shakllantirish muammosiga bag'ishlangan qo'lyozmalari, hunarmandchilik, san'at asarlarini yaratish uslublari va yo'llari haqida yozma manbalari, boshqa xalqlarnikidan o'z mazmuni va mohiyati hamda maqsadi bilan tubdan farq qiladi. O'sib kelayotgan yosh avlodni jamiyat aqidalari, qadriyatlarini, merosi ruhida

shakllantirish ta'limi, tarbiyasi muammosi, insoniyat jamiyati paydo bo'lgandan boshlab, hozirgi kungacha har bir davrning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

Muammoning ishlanganlik darajasi. Yoshlarga turli kasblar, hunarlar o'rgatish har bir davrda, har bir davlatda o'ziga xoslikni namoyon etib kelgan. Yoshlarning mehnat, kasblarga tayyorgarligi muammolarini yoritishning turli xil masalalari bo'yicha mamlakatimiz pedaog olimlari ham turli xil sohalarni tadqiq qilish bo'yicha shug'ullanmoqdalar.

Bu borada olib borilayotgan tadqiqotimiz davomida ilmiy pedagog adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning mehnat ta'limi va tarbiyasi berish muammolari bilan R.A.Mavlonova, qishloq maktablarida yoshlarga mehnat tarbiyasini berish masalalari bilan E.T.CHoriev, O.Hayitov, o'rta maxsus o'quv yurtlarida kasb ta'limi pedagogik asoslarini ishlab chiqish bo'yicha Ya.Haydarov, hunar ta'lim bilim yurtlarida ishchi kadrlar tayyorlash muammolari bo'yicha P.T.Magzumov, kasb-hunar ta'limini bozor iqtisodiyoti jarayonida tashkil etishni takomillashtirish bilan R.X.Jo'raev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida mehnat ta'limi o'qituvchilari tayyorlashning psixologik-pedagogik muammolari va istiqbollarini yoritish bo'yicha U.N.Nishonaliev, talabalarni o'quvchilarning unumli mehnatiga rahbarlikka tayyorlash bilan N.S.Saidahmedov, mehnat va kasb ta'limining metodik ta'minoti bo'yicha A.R.Xo'jaboev, pedagogika oliy o'quv yurtlarida talabalarni, o'quvchilarning kasb tanlash ishlarini o'rgatish bilan N.SHodievlar ilmiy tadqiqot ishlari olib bordilar. Q.O. Mustafoev, K.Davlatov, J.Ramizov, B.Muranov, O.Abduquddusov, I.Karimov, N.Muslimov, A.F.Antonov, U.Tolipov, T.Xolmurodov va boshqa olimlar mehnat, ishlab chiqarish, kasb-hunar pedagogikasining turli masalalari bo'yicha izlanishlar olib bordilar, hamda tadqiqotlari natijalarini monografiya, o'quv qo'llanma, tavsiyanoma, maqolalar tarzida chop ettirdilar hamda dissertatsiyalar qo'rinishlarida muvoffaqiyatli himoya qildilar.

Xalq hunarmandchiligining O'zbekiston Respublikasi uzluksiz ta'lim tizimida tasviriy san'at va mehnat ta'limi fani negizida o'rganila bolanishi

yoshlarning mehnat va kasblarga tayyorgarligini milliy, tarixiy, etnografik va mahalliy asosga qo'yilishiga va qayta qurilishiga zamin yaratadi.

Bu muhim sohaning ahamiyati, uni takomillashtirish va rejalashtirish to'g'risidagi Prezidentimiz I.A.Karimovning 1997 yil 31 martdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari tug'risida»gi farmoni muhim ahamiyatga molik voqea hisoblanadi. Jumladan, ushbu farmonda shunday deyiladi: «... yoshlarni xalq san'ati ustalarining ko'nikmalariga o'qitib o'rgatish uchun zarur shart-sharoitlarni vujudga keltirishda amaliy yordam ko'rsatish Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashining viloyatlar, shahar va tumanlar hokimlarining, Respublikasi Vazirlari va idoralarining eng muhim vazifasi deb hisoblansin».

Qarorga muvofiq har yili xalq hunarmandchiligi, badiiy-amaliy bezak san'ati ustalarining ijodini, ish faoliyatlarini yorutuvchi ko'rik, ko'rgazmalarni respublikamizning barcha tuman, shahar, viloyatlarida tashkil etish ajoyib an'anaga aylanib qoldi. Bu an'anaga muvofiq, mamlakatlarimiz bo'yicha o'tkazilgan yakuniy ko'rik-ko'rgazmada g'olib chiqqan mohir ustalar, ustozlar respublika Prezidentining qimmatbaho sovg'asi bilan taqdirlandilar, hamda xalqaro ko'rik-tanlovlarda ishtirok etish uchun yo'llanma oladilar. Bu hol esa milliy madaniyatimiz, merosimiz hisoblangan xalq hunarmandchiligi, amaliy san'atni bevosita Prezidentimiz I.A.Karimov tashabbuslari bilan yangidan umumdavlat miqyosida rivojlantirishga jiddiy e'tibor berilayotganligiga yaqqol dalil bo'la oladi.

Xalq hunarmandchiligi moddiy madaniyatimizning eng qadimiy muhim turlaridan hisoblanadi va tasviriy hamda amaliy san'atning ko'pdan-ko'p sohalarini bilan uyg'unlashib ketadi. Ammo, tasviriy va amaliy san'at buyumlarga badiiy ishlov berish jarayonining hamda xalq hunarmandchiligining o'ziga xosligi, yo'llarini, xususiyatlarini, uxshashliklari va qolaversa, bir-biridan farqlarini ajratish muhimdir. Shuning uchun biz moddiy madaniyatning, madaniyatning ushbu sohalarining mavjud ta'riflarini keltirib, taqqoslab o'tmoqchimiz:

Tasviriy san'at – san'at turi bo'lib, rassomlik, rafika, haykaltaroshlik va foto san'ati sohalarini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at real borliqni ko'rgazmali

obrazlarda, mavjud predmetlarni ularning tabiiy shakli, o'rne bo'lishini o'ziga o'xshatib, umumlashtirib va tipiklashtirib ifodalaydi.

Milliy bezakchilik san'ati-tasviriy san'atning eng qadimgi turlaridan biri, amaliy bezakchilik san'ati buyum va materialga, bezak texnikasiga qarab farqlanadi, xalq turmush madaniyatini xarakterlaydi. Amaliy bezak san'ati buyumlarning badiiyligi shu buyumlarining amaliy funktsiyasi bilan bog'liq. Hunarmandchilik – hunarmand, har xil oddiy mehnat qurollari yordamida xom ashyodan turli mahsulotlar ishlab chiqarish; shunday mahsulotlartayyorlanadigan kasblarning umumiy nomi.

Kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, miskorlik, binokorlik, haykaltaroshlik, o'ymakorlik, toshtaroshlik, ko'nchilik, pichoqchilik, anjomsozlik, zargarlik, degrezlik, rextagarlik, bo'yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va boshqalar ajrala borgan.

Demak, yuqoridagi ta'riflardan ko'rinib turibdiki, xalq hunarmandchiligining mohiyati, mazmuni, tuzilishi, xususiyati o'ziga xosdir.

O'zbek xalqining shakllanish tarixi bilan uyg'unlashib ketgan xalq hunarmandchiligi 150 xildan ziyod sohaga ega bo'lishiga qaramasdan, hozirgi zamon ta'lim-tarbiya tizimida ulardan deyarli foydalanilmasdan kelishi mavjud mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limi tizimining milliy, mahalliy, etnik, tarixiy xusuiyatlaridan ajralib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Tasviriy va amaliy bezak san'atining me'morchilikning turli sohalarini tadqiq etilishi, yoritilishi masalalari bilan olimlardan G.Pugachenkova, N.Chepeveletskaya, G.Morozova, R.Hasanov, S.S.Bulatov, Q.Qosimov, P.Sh.Zohidovlar xalq hunarmandchiligi, amaliy bezak san'ati to'g'risida yirik asarlar bitgan bo'lsalar, tadqiqotchilardan M.X.Mirzahmedov, S.Ergashev, A.Sulaymonov, B.Ortiqov, A.O'roqov, V.Mazurь, A.Turdialiyev, I.Karimov, M.Yunusov, A.Rahmatullayev, O.Jamoliddinova va boshqalar ilmiy ishlar olib bordilar.

Xalq ustalaridan usta SH.Murodov, Q.Yo'ldoshyev, N.Yodgorov, A.Hayotov, X.Nosirov, milliy musiqa asboblari ustasi Seyitniyozov, usta

K.Burxonov, T.Arslonqulov, M.Usmonov, Z.YUsupov, U.Tohirov, A.Jalilov, K.Haydarov va boshqalarning, milliy meroslarning to'liq o'rganilmasdan, yoshlarga o'rgatilmasdan qolishiga sabab bo'lmoqda, zero, xalq ustalarining ijodiy meroslari tajribalarining har biri juda ko'p yillarda, ko'p mashaqqatlar bilan yaratilgan yirik hunarmandchilik maktablari mohiyatiga egadirlar.

Vatanimizning shuhratini dunyoga mashhur qilayotgan xalq hunarmand ustalari, misgarlardan: Fariqov S. (Farg'ona), Haydarov A.(Andijon), YUsupov A.(Namangan); pichoqchilardan: Mahmudov B.(Andijon), Malikov A (Namangan), MansurovU (Qo'qon); ganchkorlardan: Usta SHirin Murodov (Buxoro), Arslonqulov T. (Toshkent), Quliev A. (Samarqand), Azizov YU (Samarqand); kosibchilikdan: Aliev A. (andijon), Rahmatov M. (Namangan), Ismoilov T. (Samarqand); kulolchilikdan: Matjonov R. (Xorazm), Narzullaev A. (Buxoro): tosh-taroshlik bo'yicha xalq ustalaridan: aka-uka Usta Jalil va Bolta Jo'rayevlar (Samarqand), Karimbergan Rahmonberganov (Xorazm), Abdurahim Turdiyev (Buxoro)larning har birining ijodi, hayoti hunarlari mualliflik maktabi sifatida e'tiborga molikdir.

Respublikamizdagi xalq hunarmandchiligining Toshkent, Samarqand, Buxoro, Nukus, Xiva, Termez, Urganch, Namangan, Andijon, Farg'ona, CHust, SHahrisabz va boshqa markazlarning ta'limiy-tarbiyaviy imkoniyatlari beqiyos bo'lib, o'ziga xosligi jihatidan bir-biridan ajralib turadi.

Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasb tayyorgarligini, jumladan, milliylashtirishda, xalq hunarmandchiligi asosiga qaytadan bunyod qilishda hamda bu jarayonni hozirgi zamon talablari asosida amalga oshirishda quyidagi muammoli, ziddiyatli holatlar yuzaga keladi.

- mustaqil davlatimizning ijtimoiy, iqtisodiy-siyosiy, g'oyaviy, mafkuraviy strukturasi bilan mehnat va kasbga tayyorlashning mazmuni maqsadi, ilmiy-uslubiy, moddiy-texnik ta'minoti orasidagi mantiqiy bog'liqligi zamon talabi darajasida emasligi;

- ilmiy-texnik o'zgarishlar, ilg'or ishlab chiqarish texnologiyasi, zamonaviy xo'jalik yuritish shakllari bilan ularning milliy, tarixiy uyg'unlashuvi amalda o'z aksini topmaganligi;
- yoshlarning mehnat va kasbga tayyorgarligini amalga oshirishning asosiy qismi bo'lgan umumiy o'rta ta'lim bo'g'ini bilan uzluksiz ta'limning boshqa bo'g'inlari, bosqichlari o'rtasida uzviylik va o'zaro bog'liqlikning ta'minlanganligi;
- yoshlarning mehnat va kasbga tayyorgarligining an'anaviy mazmuni, maqsadi va tuzilishida respublikamizning milliy, etnik, mahalliy, tarixiy xususiyatlari va sharqona tafakkur mezonlari aks etmaganligi.
- O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarlik tizimida milliy va ma'naviy qadriyatlarni, moddiy madaniyatimiz asoslarini o'rganishda zaruriy ehtiyojning mavjudligi, ammo bu ehtiyojning ta'lim-tarbiya tizimida to'liq o'z o'rnini topmaganligi;
- Umumta'lim maktablari va yangi turdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari faoliyatida uzviylikning o'zaro aloqaning ta'minlanganligi vash u kabilar ilmiy tadqiqot muammosining dolzarbligini belgilaydi. Muammoning nazariy va amaliy jihatdan etarlicha ishlanmaganligi hamda yangicha mazmun va shakl vositalarning ta'lim-tarbiya jarayonida to'liq yoritilmaganligi izlanishimizning mavzusini quyidagicha tanlashimizga imkon yaratdi:

Bitiruv malakaviy ishning ob'ekti: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida va kasb-hunar kollejlari o'quvchilarning mehnat va kasblarni o'rganishga tayyorgarligi (kasblarga yo'naltirish) jarayoni.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlardan (xalq hunarmandchiligi sohalaridan) foydalanishning pedagogik sharoitlarini nazariy jihatdan asoslash va amalda sinash.

Bitiruv malakaviy ishning maqsadi: O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim maktablari sharoitida o'quvchilarni milliy qadriyatlar vositasida mehnat va

kasbga tayyorgarligini takomillashtirish jarayonini nazariy jihatdan asoslash va amaliy tajribada sinab ko'rish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy farazi (taxmini): Hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlarni o'rganishlari samarali bo'ladi, qachonki: yoshlarning mehnat va kasb-hunarlarni o'rganishga tayyorgarligida milliy qadriyatlarimizdan foydalanishning tarixiy rivojlanishi, hozirdagi ahvoli va istiqbol taraqqiyoti yoritilsa;

- hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarligining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilsa;
- milliy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligi sohalaridan umumiy o'rta ta'lim tizimida foydalanishning mazmuni, sharoitlari yoritilsa;
- umumiy o'rta ta'lim maktablarida sinfdanva maktabdan tashqari ishlarda, darslarda xalq hunarmandchilik sohalaridan foydalanishning ko'rinishlari, shakllari va mazmuni ishlab chiqilsa;

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Milliy qadriyatlarimizning tarixiy rivojlanish jarayonini o'quvchilarning mehnat va kasb-hunarlarni o'rganishga tayyorgarligi jarayonini takomillashtirishda foydalanishning o'ziga xos qirralarini yoritish.
2. O'quvchilarning mehnat va kasbiy tayyorgarligida milliy qadriyatlardan foydalanish vositasida ularni takomillashtirishda xalq hunarmandchiligining o'rnini belgilab berish.
3. Hozirgi zamon sharoitida umumiy o'rta ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligidan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlarini yoritish.
4. O'quvchilarning mehnat va kasbga tayyorgarligini (halq hunarmandchiligi misolida) takomillashtirishda o'quv mashg'ulotlarini, sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning tarbiyaviy imkoniyatlarini ochib berish.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asoslari bo'lib, shaxsning mohiyati to'g'risidagi g'oyalar: ma'naviy-axloqiy va mafkuraviy, milliy qadriyatlarni o'rganishga tarixiy yondashish; yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligiga bag'ishlangan Sharq mutafakkirlari asarlari, ug'itlari, fikrlari shaxsning har

tomonlama rivojlanishi, yosh avlodning mehnat kasbga tayyorgarligi to'g'risida Oliy Majlis va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hamda hukumatining qarorlari, qonunlari va farmonlari, me'yoriy hujjatlari; yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'limi to'g'risidagi ilmiy, falsafiy, pedagogik, psixologik, didaktik nazariyalar, g'oyalar xizmat qiladi.

Bitiruv malakaviy ishda foydalanadigan uslublar: kuzatish, anketa, test, suhbat, olingan ilmiy natija va dalillarni matematik – statistik qayta ishlash va umumlashtirish, ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, uslubiy adabiyotlar va vaqtli matbuot maqolalarning tahlili, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, arxiv hujjatlari bilan tanishish, sinov darslarini o'quv kurslarini o'tkazish.

Tajriba – sinov ishlarini o'tkazish maydonlari: Samarqand shahridagi 55-63 umumiy o'rta ta'lim maktabi, Samarqand shahridagi Maishiy xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishini amalga oshirish bosqichlari:

1 - bosqich 2013-yil izlanayotgan muammoga oid pedagogik-psixologik, ilmiy-ommabop va maxsus adabiyotlar o'rganildi, mehnat va kasb ta'limi mutaxassislari faoliyat ko'rsatayotgan muassasalar, o'rta umumta'lim qishloq va shahar maktablari, maxsus, kasb-hunar o'quv yurtlari pedagogik jamolarning ish tajribalarining mazmuni bilan tanishildi.

O'rta umumiy ta'lim qishloq va shahar maktablari mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limi DTS, o'quv reja va dasturlari, o'quv qo'llanmalari, darsliklar va boshqalar tahlil etiladi.

2 - bosqich 2013-2014 yil ilmiy-tadqiqot ishi yo'nalishi tajriba-sinov ishlari dasturi va rejasi bo'yicha tasdiqlovchi va shakllantiruvchi tajriba-sinov ishlari olib borildi. Mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limi o'qituvchilari, o'quvchilar bilan suhbatlar, savol-javoblar, testlar, test-anketalar, anketalar o'tkazildi. Sinov o'quv mashg'ulotlarining turli ko'rinishlari nazorat va tajriba sinflarida o'tkazildi. Ilmiy ma'ruzalar va maqolalar tayyorlandi va amaliyotga tadbiiq etildi.

3 – 2014 yil may-iyun oylari. Shakllantiruvchi, tajribalar yakuni. Ilmiy tadqiqot natijalarini matematik jihatdan qayta ishlendi, umumlashtirildi va xulosalandi.

Bitiruv malakaviy ish ko'rinishida rasmiylashtirilib, tegishli joylarda muhokamadan o'tkazildi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi va nazariy ahamiyati:

1. Yoshlarning mehnat va kasbga tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning o'ziga xos o'rni ahamiyati yoritildi.
2. Hozirgi zamon sharoitida o'quvchilarning mehnat va kasb tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlarni xalq hunarmandchiligi misolda o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari yoritildi va pedagogik jihatdan umumlashtirildi.
3. O'quvchilarning mehnat va kasb tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlardan xalq hunarmandchiligini o'rganishda o'quv va sinfdan tashqari mashg'ulotlar imkoniyatlari yoritildi va olingan pedagogik xulosalar amaliyotda sinab ko'rib, tadbqiqiy tomonlari ishlab chiqildi, hamda bu jarayonni takomillashtirishning keng imkoniyatlari mavjudligi nazariy jihatdan asoslandi.
4. O'quvchilarning mehnat va kasb tayyorgarligini takomillashtirishda milliy qadriyatlarni o'rganishlari darajasini aniqlash mezonlari ishlab chiqildi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati quyidailardan iborat:

- Tadqiqot natijalarini umumiy o'rta ta'lim maktablarida, kasb-hunar,o'quv muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish uchun tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotda qo'llash mumkin;
- O'quvchilvr xalq hunarmandchiligini o'rgatish to'g'risida, yaratilgan uchlubiy ishlanmalar va tavsiyalar uzluksiz ta'limning quyidagi bug'inlarida qo'llanishi mumkin:

Qo'llanilish sohasi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida, mehnat ta'limi darslarida, pedagogika yo'nalishidagi KHK larida, Oliy o'quv yurtlarida mehnat ta'limi darslari va darsdan tashqari mashg'ulotlarda qo'llaniladi.

1-BOB O'zbekiston Respublikasida o'quvchi-yoshlarga mehnat ta'limi va tarbiyasi berishda xalq hunarmandchiligi misolida moddiy qadriyatlardan foydalanishning tarixiy taraqqiyoti.

1.1§ Adabiyotlar tahlili. Mehnat va kasbga tayyorgarlikni takomillashtirishda milliy qadriyatlardan (xalq hunarmandchiligi misolida) foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari.

Uzluksiz ta'limni SHarq pedagogikasi an'alariga mvofiq holda isloh qilish ta'lim-tarbiya sohasida milliy taraqqiyotimizning yutuqlariga qayta-qayta murojaat etishga olib keladi. Bu haqda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturining «Uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirish printsiplari» qismida quyidagicha ko'rsatilgan: «Ta'limning milliy yo'naltirilganligi – ta'limning milliy tarixiy, xalq an'analari va urf-odatlar bilan uzviy uyg'unligi, O'zbekiston xalqlarining madaniyatini saqlab qolish va boyitish, ta'limni milliy taraqqiyotning o'ta muhim omili sifatida e'tirof etish, boshqa xalqlarning tarixi va madaniyatini hurmatlash g'oyalari asosida yaxshilash lozim».

Yuqoridagi tezisdan ko'rinib turibdiki, hozirgi davr pedagogikasini tarbiyashunoslik ilmini, ta'lim-tarbiya nazariyasi va amaliyotini qayta qurishda va taraqqiy ettirishda SHarq xalqlarining asrlar bo'yi erishgan ko'p yillik hayotiy tajribalarini, tarixiy meroslarini, madaniy qadriyatlarini chuqur, atroflicha o'rganish hamda ularni yangilanayotgan mehnat kasb-hunar ta'limi tizimiga joriy etish muhim ahamiyatga egadir.

Milliy qadriyatlardan, tarixiy meroslardan, moddiy va ma'naviy madaniyat yutuqlaridan hisoblangan Markaziy Osiyo qomusi allomalarining ta'lim-tarbiya to'g'risidagi g'oyalardan yoshlar tarbiyasida foydalanishga falsafiy, pedagogik, didaktik, psixologik nuqtai nazardan e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasining etakchi olimlaridan E.YU.YUsupov, F.YU.Ismoilov, O.Turaeva, O.Musurmonova, SH.Qurbonov, M.Hasanov, A.Zunnunov, A.E.Izmailov, Z.F.Mirtursunov, S.K.Annamurotova, S.X.Fayzullina, A.K.Munavvarov, K.Hoshimov, M.A.Inamova, S.N.Nishonova, H.Uzaqov, E.G'oziev, I.Y. Tursunov, U.Nishonaliyev, R.Mavlanova, H.Tillaev, U.A.Aliyev va boshqa

ko'plab tadqiqotchilar xalq pedagogikasining barhayot yutuqlaridan hisoblangan milliy qadriyatlarning ta'lim – tarbiya tizimida yaratilishi va o'rganishiga salmoqli hissa qo'shdilar. Shuning uchun ham yuqoridagi olimlarning asarlari bizning ilmiy ishimizda ham katta ahamiyatga egadir.

Faylasuf olim, akademik E.Yusupov o'zining qator asarlarida qadriyatlarning ta'rifi, xususiyatlariga to'xtalib o'tdi. U qadriyat tushunchasiga falsafiy nuqtai nazardan quyidagicha ta'rif beradi: «Qadriyatlar jamiyat hayotining tarixiy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir etadigan, kishilar ongiga singib, ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy, ma'naviy hodisa, jarayon bo'lsa ham, uning ahamiyati va mohiyati kishilarning ularga munosabati asosida belgilanadi. Qadriyat degan tushunchaning o'zi ham qadr-qimmat degan ma'noni bildiradi».

Olim, jamiyat taraqqiyotidagi insoniyat tomonidan yaratilgan o'tmish va kelajakda rivojlanish uchun ijobiy ta'sir etadigan barcha moddiy va ma'naviy boyliklarni, fikrlarni, g'oyalarni ham qadriyat sifatida qaraydi. Biz ham o'z tadqiqotlarimizda yosh avlod ta'lim-tarbiyasi, odobi, axloqiy shakllanishi, ijtimoiy tushuncha ekanligini e'tiborga oldik. SHaxsning hislatlarini, fazilatlarini, dunyoqarashini shakllantirishga va rivojlantirishga xizmat qiladigan o'tmishda yaratilgan, kelajakda foydalaniladigan omillarni yoshlarning ta'lim- tarbiyasida foydalanishga yaraydigan qadriyatlar deb tushunamiz. SHuningdek, barcha qadriyatlar ta'limiy, tarbiyaviy ahamiyatga egadir. Ular yosh avlod ongining, dunyoqarashi shakllanishiga, ichki ruhiy unyosining, aqliy faoliyatining kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ko'pgina qadriyatlar jarayon xususiyatiga ega bo'lib, ushbu jarayonni amalga oshirilishda bo'lg'usi shaxs-bola ishtirok etdi, uning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi, ba'zi qoidalarini o'rganib, ongiga singdirib boradi. Bular jumlasiga an'analar, urf-odatlar, ugitlar, nasihatlar, san'at, bayramlar yo'nalishidagi qadriyatlarni misol keltirishimiz mumkin.

Ba'zi qadriyatlar esa namoyon bo'lib, bueien natijasida turli xil buyumlar, asarlar, jihozlar, qurilmalar ko'rinishidagi moddiy boyliklar yaratiladi va moddiy borliqning o'zligiga nisbatan ushbu ta'sir uzoq vaqt saqlanib qoladi. Ushbu moddiy borliq yaratilishiga sabab bo'ladigan qadriyatlarni biz shartli ravishda

moddiy qadriyatlar deb belgiladik. Ko'p yillik kuzatishlarimiz olib borgan tadqiqotimiz natijasida o'quvchilar shaxsining shakllanishiga va rivojlanishiga ta'sir etadigan tarixiy, madaniy, ma'naviy, moddiy qadriyatlarni umumlashtirib quyidagicha tizimlashtirishga harakat qildik. Biz jarayon qadriyatlarni shartli ravishda ma'naviy qadriyatlar deb, namoyon qadriyatlarni moddiy borliq ko'rinishlarini moddiy qadriyatlar deb belgiladik.

Xalqimizning tarixiy rivojlanish taraqqiyotini ma'naviy, ruhiy dunyosini, milliy qadriyat xususiyatlarini ifodalaydigan ko'p ming yillik davrda yaratilgan hayotiy tajriba bayonin yoritadigan manbalarni ma'naviy qadriyatlar sifatida guruhladik. Biz shartli ravishda ma'naviy qadriyatlarni shajaralarga ajratdik. Bunda xalqimizning tarixiy rivojlanishini, dardini, tashvishini, quvonchini va g'amini og'zaki va yozma holda ifodalaydigan oqinlar, baxshilar, xofizlar, qorilar tilidanaytilgan durdonalarni kiritdik. Ularga quyidagilar xalq og'zaki ijoi, doston, lapar, aytishuv, ertak, hikoya, xalq yozma ijodi, rivoyat, g'azal, rudoiy, matal, topishmoq, musaddas, muxammas, marosim qo'shiqlari, qahramonlik qo'shiqlari, mehnat va mavsumiy qo'shiqlar va boshqalarni mansub deb ajratdik.

«Xalq ijodi – mehnatkash xalq ommasining badiiy-ijodiy faoliyati bo'lib, xalq yaratgan va xalq orasida keng tarqalgan va avloddan-avlodga o'tib, ommaning ijtimoiy mehnat tajribasi jarayonida shakllanib toboro takomillashtirilib boradigan san'atdir. Xalq ijoidan xalqnig mehnat faoliyati, ijtimoiy va milliy hayoti, turmush, tabiat to'g'risidagi tushunchalar, madaniyati, e'tiqodi, orzu-istaklari va siymolari poetik fantaziyasisi, his-tuyg'ulari va tafakkurining boy olami baxtli va adolatli zamon haqidagi o'ylari o'z ifodasini topadi».

Dostonlar – ko'proq SHarq adabiyotiga mansub lirik, epik zamondagi ko'p qismli poetik asarlar bo'lib, xalq hayotining ma'lum tarixiy taraqqiyot davri uchun muhim hisoblangan mavzularga bag'ishlanadi. Matni she'riy, ertakka o'xshash ko'rinishlarda bo'lib, baxshilar, hofizlar, oqinlar tomonidan qayta ishlanishi va kuylanishi natijasida sayqallanib boradi.

Dostonlarda voqea-hodisalar, qahramonlar hatti-harakatlari, xulq-atvorlari bo'rttirib ko'rsatiladi, mubolag'a va turli-tuman qilib (metafora usulida) tasvirlanadi.

O'zbek xalq dostonlaridan «Alpomish», «Go'ro'g'li», «Avazxon», «Hasanxon», «Kuntug'mish», «Oshiq G'arib va SHoxsanam», «YUnus pari», «Rustamxon» va boshqalar halqning o'lmas qadriyatlariga aylangan, hamda jahon madaniyatida muhim o'rin egallagan.

Xalq dostonlari Samarqandlik Fozil Yo'ldosh o'g'li, Pulkan shoir, Ergash Jumanbulbul o'g'li, Islom shoir, SHoberdi Boltayev, Bola baxshi Jumaboy Bozorov, Xorazmlik Abdulla Qurbonnazarov va boshqalar ijodida xalqimizning yirik dostonchilik maktablarining ijodiy mevalari sifatida tanilgan. Dostonchilikning Surxandaryo (Denov, Termiz), Qashqadaryo, Xorazm, Qoraqalpog'iston, Samarqand, Jizzax ijodiy maktablarining ijro uslublari o'ziga xos maftunkorligi bilan ajralib turadi.

Xalqimizning og'zaki ijodini, baxshichilik san'atini hozirgi davrda ulug'lanib, bu soha bo'yicha davlat miqyosida «Xalq baxshisi» unvoni ta'sis etildi. Har yili tumanlar, viloyatlar va respublika miqyosida baxshilar o'rtasida ko'rik-tanlovlar o'tkazish an'ana tusiga kirib bormoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni asosida baxshichilik san'atini yanada rivojlantirish, milliy qadriyatlarimizni e'zozlash va o'zbek xalq og'zaki ijodiyotini keng targ'ib etishdagi ulkan xizmatlari, xalqimizning ma'naviy dunyosini boyitish yo'lidagi hissasi hamda ma'naviy-ma'rifiy islohatlar jarayonidagi faol ishtiroki uchun quyidagilarga «O'zbekiston Respublikasi xalq baxshisi» faxriy unvoni berildi: 1. Boltaev SHoberdi, Surxandaryo viloyati Boysun tumani 37-maktab o'qituvchisi. 2. Bozorov Jumaboy, Qoraqalpog'iston Respublikasi, SHumanoy tumani madaniyat bo'limi xodimi. 3. Qurbonnazarov Abdulla, Xorazm viloyati, Xiva shahar «Doston» ansambli badiiy rahbari. Toshkent, 2000 yil 14-mart («Xalq so'zi» 2000 yil 15-mart 51-soni).

O'quvchilarga milliy qadriyatlarimizning noyob durdonalaridan hisoblangan xalq ijodi namunalari dostonlar, qo'shiqlar, rivoyat, hikoyat va boshqalaridagi

qahramonlarning fazilatlarini, hislatlarini, komil inson ta'rifi sifatida o'quv - tarbiyaviy jarayonida o'rganib, o'rgatib borish har biri tarbiyachi, pedagogning muqaddas burchidir. Chunki qahramonlar siymosida tasvirlangan ijobiy fazilatlarni xalq o'z farzandlarida bo'lishini orzu qiladi va istaydi, shakllantirishga intiladi.

Fikrimizcha xalq san'ati-orzularni, kechinmalarni, his-tuyg'ularni turli harakatlarda, og'zaki vositalarda (qo'shiq, ashula, raqs va musiqa asboblari) obrazli qilib ifodalanishidir. Xalq san'ati turli faoliyatlarda (askiya, qiziqchilik, masxaraboz, ko'zboylagich, dor o'yini) va amaliy san'at (naqqoshlik, me'morchilik, zardo'zlik, tasviriy san'at va boshqalar) ko'rinishlarida ham nomoyon bo'ladi.

Har bir xalqning tarixiy o'tmishi, urf-odatlar, mehnat tajribalari, yig'inlari turli an'analar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bizning fikrimizcha o'zbek xalqining ko'p asrlardan buyon davom etib kelayotgan umr boqiy an'alariga quyidagilarni misol keltirish mumkin: «Navruz» - musulmon taqvimida 21-mart kuni nishonlanadigan yangi yil bayrami bo'lib, erga ishlov berish va urug' qadashning boshlanishi nishonlanadigan tantanadir.

«Beshik to'y» - oilada farzand tug'ilgach, beshikka (belanchakka) yotqizishga bag'ishlangan tantanadir. Asosan ko'p bolali oilalarda iborat bo'lgan, bolajonli hisoblangan o'zbek xalqida bu an'ana nihoyatda qadrlanadi.

«Hashar» - turli xil mehnat mavsumlarida, uy-joylarni ta'mirlashda, nisbatan katta tashvishlarni, muammolarni hal etishda bir-biriga yordam ko'rsatish, mehribonlik yordamini tashkil etishda qarindosh-urug'larni sahovatli (to'lovlarsiz) yordam ko'rsatishidir. Hasharlar ko'proq O'rta Osiyo xalqlariga, shuningdek, O'zbekiston xalqiga ham xos milliy an'analardan hisoblanadi.

O'zbek xalqining keng tarqalgan an'alariga xotirlash (marhumlarni eslash, be'morlardan xabar olish), sunnat tui, hovli tui, ota-onaga harmat, yoshlarga izzat, qariyalarga muruvvat, askarlik burchini ado etish kabilarni misol tariqasida keltirish mumkin. Biz yuqorida keltirib o'tgan, ming yillik tarixga ega bo'lgan an'alarimiz qayta tiklanishi, taraqqiy etilishi, takomillashtirilishi, yangi zamon

ruhiga moslashtirilib, rivojlanishiga hamda tarbiya tizimida batafsil o'rganilishiga O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi mustahkam zamin va sharoit yaratdi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf-odatlar va azaliy an'analar to'g'risida faylasuflar, sotsiologlar, pedagoglar va boshqa olimlar o'z fikri, qarashlarini turlicha namoyon etgan. Taniqli faylasuf olim J.To'lenov, «Qadriyat deyilganda insoniyat va inson uchun ahamiyatli bo'lgan, millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlari va maqsadlariga xizmat qiladigan tabiat va jamiyat hodisalari majmui tushinilmog'i lozim» deb yozadi.

Oliy qadriyatlar ijtimoiy hususiyatga ega ekanligini kishilarning hayotiy faoliyati jarayonida shakllanishi va rivojlanishi, taraqqiy etishini aytib o'tadi. U qadriyatlarning turlarini aniqlab berishga harakat qilib, inson va uning hayotini eng oliy qadriyat ekanligini ta'kidlaydi.

J.To'lenov qadriyatlarni quyidagi turlarga ajratadi:

a) tabiiy qadriyatlar; b) madaniy va ma'naviy qadriyatlar; v) ijtimoiy, siyosiy qadriyatlar; g) milliy, mintaqaviy qadriyatlar; d) umuminsoniy qadriyatlar.

Olimlardan S.A'zamxujueva va T.Sultonovlar qadriyatlarni asosan 2 turga ya'ni 1) milliy qadriyatlar; 2) umuminsoniy qadriyatlarga ajratadilar.

1. Milliy qadriyatlar: ayrim xalqlar, millatlar va elatlar tarixiy taraqqiyoti jarayonida yaratilgan, moddiy va ma'naviy boyliklarni yig'indisini tashkil etadi. Milliy qadriyatlarni shakllanishi va rivojlanishi muayyan bir millatning hayoti, turmushi, tarixi, madaniyati, urf-odatlari, tili, o'tmishi, kelajagi bilan uzviy bog'liq bo'lishidir. Bugungi kunda milliy qadriyatlarning eng muhimlaridan oilaviy marosimlar (beshik tui, nikoh tui, payg'ambar yoshini nishonlash) kabilan hisoblanadi. Jumladan, olimlar milliy qadriyatlarni, an'analarni saqlash va tiklash yo'llarini ham ko'rsatib, quyidagicha tavsiya etadilar:

- xalq madaniyati durdonalarini tarixiy –ma'naviy meros sifatida, asl holida, o'zgartirmay tiklash va saqlash;
- milliy an'analar bilan zamonaviy madaniy muhit mazmunini boyitish;
- xalq an'analari asosida yangi badiiy tomoshalik shakllarini yaratish ustida ish olib borish;

- istiqboli yangi xalq madaniyati durdonalarining milliy an'analariga aylanishi uchun iqtisodiy, ijtimoiy-ma'naviy shart-sharoitlar yaratish.

Ushbu olimlar nazarida umuminsoniy qadriyatlar to'g'risida quyidagicha fikr yuritiladi: insonlarda axloq va madaniyatning ustunligini etirof etishda, ularni turli ijtimoiy-iqtisodiy tuzumli mamlakatlar hamkorligini umumiy yo'nalishini hosil etishda va dunyoda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy ishlarni tushunishda, madaniy-madaniy, ilmiy-texnikaviy, harbiy sohaning, aloqaning mamlakatlarda va xalqlarda rivojdantirishda ko'rinadi. Umuminsoniy qadriyatlar o'zining mazmuni, mohiyati, keng miqyosda amal qilinishi, dunyodagi ko'plab xalqlar, elatlar, millatlarning o'tmishdagi, hozirgi davrdagi va istiqboldagi taraqqiyoti bilan uzviy aloqadorlikda ekanligi, o'zida jahon rivojlanishining yaxlit va bir butunligini ifodalanganligi bilan mintaqaviy, milliy qadriyatlardan tubdan farq qiladi.

Faylasuf R.Maxmudov inson axlokini eng oliy qadriyatlardan deb xisoblaydi. «Komil insonda turt narsa kamolga etgan buladi: ya'ni yaxshi suz, yaxshi amal, yaxshi xulq va ma'rifat» degan edi mutafakkir SHayx Aziziddin Nafasiy. Kamollikning eng asosiy belgisi bu – axloq. Axloq – oliy qadriyatdir. Insonning kimligi birinchidan, yaxshi so'zidan, xulqidan, bilimidan, olgan bilimini hayotga tadbiiq etishidan bilinadi. Ikkinchidan, ma'naviyati, dunyoqarashning kengligi, jamiyatdagi o'zgarishlarni qabul qilinishi. Uchinchidan, yurt taraqqiyotiga qo'shayotgan hissasi bilan ham bilinadi.

Professor B.Qodirov yoshlarni milliy an'analar, qadriyatlar ruhida tarbiyalash, ta'lim tizimining muhim tarkibiy qismlardan biri bo'lmog'i lozim, deb hisoblaydi. Bu to'g'rida olim quyidagicha fikr yuritiladi: «... maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim maktab, o'rta maxsus va kasb-hunar, oliy ta'limda milliy qadriyatlarni o'quv dasturlari, darslik va o'qllanmalarda aks ettirish darajasi haqida qam talablar qo'yilishi o'rinli bo'ladi. Bizningcha, bu jarayonda milliy qadriyatlar maktabgacha ta'limda soddalashtirilgan qolda ko'proq aks etishi, ayniqsa unda oila an'anasi, milliy ruhiyat kabi tuyg'ularni shakllantirishga diqqat qaratishi mutlaqo to'g'ri keladi.

Boshlang'ich ta'limda ham bu ruhiyat davom etadi, lekin umuminsoniy qadriyatlarga e'tibor nisbatan kuchaytirilib boriladi va umuminsoniy qadriyatlar bosqichma-bosqich ta'lim jarayoniga kirib borishi lozim».

Biz ham uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, jumladan, kadrlar tayyorlash tizimining poydevori g'isoblangan umumiy o'rta ta'lim bosqichida milliy qadriyatlarni o'rganishni va o'rgatishning mazmun va shakllarini yoritishni ilmiy tadqiqot ishimizning asosiy g'oyalaridan birideb hisobladik. SHuningdek, milliy, umuminsoniy, ma'naviy va moddiy qadriyatlarni qanday turlarini bevosita umumta'lim tizimida o'quvchilarga qanday shakl va ko'rinishlarda o'rgatish mumkin, deb omlangan muammoni asosan, moddiy qadriyatlardan hisoblangan xalq hunarmandchiligining sharqona turlarining mazmunini tanlash, tarbiyaviy mohiyatini belgilash, axloqiy natijalariga erishish yo'llarini, pedagogik sharoitlarni aniqlashga asosiy e'tiborini qaratdik. Xalq hunarmandchiligi xalqimizning o'zbek millatining tarixiy, madaniy, ma'naviy taraqqiyoti bilan hamohang rivojlanadi.

1.2§ Gilam to'qish san'ati xalq amaliy bezak san'atining keng tarqalgan turi bo'lib, ko'p asrlik milliy an'ana va uzoq tarixga ega. Gilam to'qish badiiy to'qish hunariga kiradi. U qadimdan ayollar orasida keng tarqalgan hunar sifatida mashhurdir. Gilam to'qish san'ati ayniqsa chorvachilik bilan shugullanadigan ko'chmanchi xalqlar orasida tarqalgan. Gilam qadim zamondan beri xona ichini bezatish, issiq saqlash, tovushni kamaytirish uchun xizmat qiladi. Gilam asosan polga to'shash, xonani bezatish uchun devorga osiladi va o'tov ichiga o'raladi. Bu san'at juda qadim zamonlardan beri rivojlanganligini yozma tarixiy manbalar va arxeologik topilmalar isbotlab berdi. Arxeologik topilmalar natijasida Xorazmda miloddan avvalgi 1-ming yillikka mansub gilamlar topilganligini tasdiqladi. 5-7 asrlarda O'rta Osiyodagi ko'pgina shaharlardan Xitoyga har xil gilamlar olib kelingan. Masalan, Qarshidan to'qilgan gilamlar Xitoyga olib borib sotilgan. O'rta Osiyo va Avgoniston adabiyotlarida ko'rsatilishicha, 7-11 asrlarda Xorazm hamda Samarqand bilan Buxoro o'rtasida ba'zi shaharlarda kichik-kichik joynamoz gilamchalar to'qilib, chet mamlakatlarda sotilgan. 11-12 asrlarda O'rta Osiyoda shu jumladan, O'zbekiston territoriyasida gilam to'qish san'ati juda rivojlangan.

14 asrga kelib esa mo'gul bosqinchilari O'rta Osiyoni egallab olgach, gilam to'qish san'ati rivojlanmay qolgan.

14-asrning ikkinchi yarmida O'rta Osiyoning Sohibqiron Amir Temur qo'liga o'tishi bilan bu soha yana rivojlanib ketdi. Turli horijiy mamlakatlardan olib kelingan ustalar gilam to'qish ustaxonalarida ishlaganlar. 18-19 asr boshlarida ayniqsa, Buxoro va Fargona xonliklarida gilam to'qish san'ati tez sur'atlar bilan rivojlandi. Bunda gilam tayyorlash o'zining naqshi, yuqori sifatli to'qilishi, bo'yalish texnikasi bilan ajralib turdi. 20-asr boshlarida Qo'qon, Samarqand, Andijon, Buxoro, O'rta Osiyoning gilam to'qib sotish markazi hisoblangan.

To'quvchilik-tabiiy va sun'iy tolalardan gazlama va boshqa to'qimachilik mahsulotlari olish jarayonlari majmui; hunarmandchilikning bir turi, kasb. Dastlab neolit va ibtidoiy jamoa davrida yigirish va to'qishga doir ishlar qo'lda bajarilgan. Keyin urchuqlar, dastaki to'quv dastgohlari paydo bo'lgan. CHigit ekib, paxtadan ip gazlama olish O'rta Osiyoda milodning boshidayoq tarqalgan. Lekin ishlab-chiqarish texnikasi nihoyatda sekinlik bilan o'sgani uchun yigirish va to'qish qo'lda bajarilgan. Keyinchalik yog'ochdan yasalgan dastaki **to'quv dastgohi** (do'kon) paydo bo'lgan.

Gilamchilik – gilam to'qish kasbi, badiiy hunarmandchilik sohasi. Qadimdan chorvachilik bilan shug'ullanadigan ko'chmanchi qabilalar orasida keng tarqalgan. O'simlik (paxta, jun, zig'ir,) tolasi, jun (qo'y, echki, tuya juni) dangina tayyorlangan.

Gilam - badiiy to'qimachilik buyumi; uy jihozi bo'lib polga to'shash, devorga osish, xonani bezash, isitish, tovushni pasaytirishga xizmat qiladi. Qo'lda yotiq yoki tik dastgohlarda jun, ipak, kanop, paxta va boshqa iplardan to'qiladi. To'qilishiga ko'ra gilam patli va patsiz (palos), bezagiga ko'ra, naqshli va mavzuli turlari farqlanadi, naqshli gilam mujassamoti handasaviy yoki o'simliksimon bezaklar, turli xil belgi ramzlardan iborat, ayniqsa, islamiy mujassamotlar juda go'zal etib tasvirlanadi. Mavzuli mujassamotlarda esa ov manzaralari, gullagan bog'lar aks etadi. YAratilishiga ko'ra, to'qima (guli to'qiladigan), tikma (guli tikiladigan), bosma (guli bo'yab bosiladigan) turlari bor. Naqsh mujassamoti

(handasaviy, islamiy, girih va b) va unda markaziy maydon bilan hoshiyasi orasidagi nisbat, sifati (patli yoki patsizligi, patining uzun-qisqaligi), bo'yog'i ranglar uyg'unligi, xom ashyosi, hajmi gilamning badiiy qiymatini belgilaydi.

Eng qadimgi gilam namunalari miloddan avval 6-5-asrlarga oid bo'lib, Tog'li Oltoydan topilgan. Olimlarning taxminiga ko'ra, u Axamoniylar davri xalqlari yoki O'rta Osiyo qabilalari orasida tayyorlangan. (hajmi 1,8-2m; naqsh mujassamoti; xandasiy shakllar, nilufar gullar bilan bezatilgan, keng hoshiyalarida otliq chavandozlar, xoldor bug'ular, grifonlar tasviri bor).

Qadimiy va ilk o'rta asrlar gilamlarga oid ma'lumotlar yozma manbalarda saqlangan. Saljuqiylar davrida gilamlar ko'plab tayyorlangan va Ko'niya, Misr, Hindiston, Xitoyda chiqarilgan. O'rta asrlarda gilamlar uch yo'nalishda – ko'chmanchi va yarim ko'chmanchi chorvador qabilalarda, o'troq (qishloq yoki shahar) aholi orasida va saroy ustaxonalarida tayyorlangan va rivojlangan.

16-asrdan saroylarda tayyorlangan (Eron) gilamlari yaxshi saqlangan. Bu gilamlar ("Turunj", "SHoh Abbos", "Bog'", "Ov" va b.) amaliy san'atining nodir namunalaridir. Ular miniatyura ustalari-musavvirlarning chizgilari asosida to'qilgan. Gilamlar tayyorlash Turkiya, Boburiylar davrida Hindistonda ("Mo'g'ul", "Agra" va b.) Misr, Suriya, Kavkaz ortida ham taraqqiy etgan.

18-19 asrlarda gilam Zakavkazye va O'rta Osiyoda saroylaridagina emas, balki xalq orasida keng tarqaldi. Asosiy markazlari Kazax, Ganja, SHirvon, Boku, Naxichevan bo'lgan Zakavkazye gilamlari rang-barang mujassamoti, ijro usuli va badiiy jihati bilan, Turkmaniston gilamlari ("Salor", "Sariq", "Taka yovmut", "Bashir" va boshqa) turkumlarda tayyorlanib qizil rangining teranligi, xandasaviy gullari va o'ta pishiqligi bilan ajralib turadi.

Gilam markazlarida Kavkaz gilamlari, an'anaviy Turkman gilamlari xilidagi bir muncha soddalashtirilgan gilamlar ishlab chiqarildi, faqat Samarqad gilami (Julxirs) o'zining an'anaviy uslubini, rangdorligini saqlab qoldi.

Hozirda gilamlar Farg'ona vodiysida, Qashqadaryo, Surxandaryo, Sirdaryo viloyatlari, Qoraqalpog'istonda rivojlangan. SHuningdek, Samarqand, Urgut, Qo'qon va Xorazm ham gilamchilik ko'plab to'qiladigan hududlardan hisoblanadi.

1.3§ Gilamchilik respublikamizda engil sanoatning muhim tarmoqlaridan hisoblanadi. Engil sanoat tarmoqlarida sanoatning barcha sohadagi xodimlarning taxminan uchdan biri mehnat qiladi. Xalq iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 50% i engil sanoat hissasiga to'g'ri keladi. Gilamlar va gilam mahsulotlari ming metr kvadrat hisobida 2000-2005 yillarda quyidagicha o'sdi. 2000-2002 yillarda -1572 ming metr kvadrat, 2003 yilda 7940 ming metr kvadrat, 2004-2005 yillarda 7946 ming metr kvadrat o'sdi. Gilamchilik korxonalaridan Xiva gilam kombinati, Olmaliq gilam fabrikasi, Toshkent, Andijon, Shahrisabz badiiy buyumlar fabrikalari muhim o'rin tutadi.

Gilamlar Surxandaryo, Qashqadaryo, Xorazm, Xiva, Urgut, Samarqand, Nurotada qo'lda ko'plab to'qiladi. Xalq hunarmandchiliklari respublikamizda amaliy san'at kasanachilik orqali milliy buyumlar hatori, gilamlar ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun Prezident I.A.Karimov tomonidan quyidagi farmonlar qabul qilingan: «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'grisida» (1997 yil 31 mart) «Mahalliy sanoatni boshqarishni takomillashtirish to'grisida» (1997 yil 15 avgustda) «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosidagi ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperatsiyani kengaytirishni ragbatlantirish chora-tadbirlari to'grisida». Ushbu qaror va farmonlarning bajarilishida juda ko'plab kichik va qo'shma korxonalar jamoalari, hunarmandlar, xalq ustalari ishtirok etmoqdalar.

O'zbekistonda gilam to'qish maktabi asosan ikki- Samarqand va Andijon katta guruhlarga bo'linadi. Andijon gilamlari o'zining chidamliligi, pishiqligi, aniq qizil, ko'k koloriti bilan farq qiladi. Fargona, Qoraqalpog' gilamlari asosan ikki xil, ya'ni qizil va to'q ko'k rangda to'qiladi. O'zbek gilamlarining chetiga ko'pincha ruta o'rtasiga turunj yoki doira naqshi ishlanadi. Samarqand gilamdo'zlik maktabiga Samarqand va Buxoro viloyatlaridagi gilam to'quvchilar kiradi. Buxoro gilamlari o'zining rang-barangligi, kattaligi, uzun patliligi va chiroyli naqshlari bilan ajralib turadi. Samarqand gilamlari qisqa patli, markazida turunj chetiga alohida-alohida naqshlar ishlanadi. Qalqon deb nomlangan turunj naqshi juda ko'p

ishlanadi. Gilamlar hoshiyador estetik jihatdan chiroyli ishlangan bo'ladi. Nurota gilamlari esa o'zining uzun patliligi, o'rtacha kattalikda, siyrakroq to'qilishi bilan ajralib turadi. Dastgohda qo'lda to'qilgan gilamlar o'zining chidamliligi, nafisligi, tabiiyligi va sifati jihatidan ajralib turadi. Bu gilamlar yuz yillab xizmat qilishi mumkin.

Gilamchilikda- jun, paxta, zig'ir va sun'iy tolalar ishlatiladi.

Gilamlarni to'qishda asosan jun tolasi ko'p ishlatiladi. Paxta tolasi asos ipi uchun, jun tolasi gilamning pati uchun ishlatiladi.

To'qimachilik tolalari – arqoq va tanda iplari to'qimachilik buyumlari tayyorlashda ishlatiladigan, uzunligi ko'ndalang kesimi yuzasidan ancha katta bo'lgan, egiluvchan, ingichka va pishiq material hisoblanadi.

Jun-junli hayvonlarning teri qatlamidagi shoxsimon o'simtalar bo'lib, gilamchilikda qo'y, tuya, echki juni ishlatiladi.

Jun tolalari-tana va ildiz qismidan iborat.

Ildiz – junning teri qatlami ostidagi qismi, tana teridan chiqib turgan va oqsil-karotindan iborat bo'lgan qismidir. Jun tolasining tanasi tangachali, qobiq va o'zak qatlamlardan iborat bo'ladi. Tangachali qatlam tola tanasini emirilishdan saqlaydi, tolani tovlantirib turadi va tolalarning bosiluvchanlik xossasini yaxshilaydi.

Qobiq qatlam - tola tanasini hosil qiladigan uchchuqsimon hujayralardan iborat bo'lib, tolaning pishiqligi, elastikligi va boshqa sifatlarini belgilaydigan asosiy qatlam hisoblanadi.

O'zak qatlam- tola o'rtasidan o'tadi, u havo bilan to'lgan hujayralardan iborat. Yo'g'onligi va tuzilishiga qarab, jun tolalari quyidagi tiplarga bo'linadi.

Momiq-mayin junli qo'ylarning butun jun qatlamini tashkil qiladigan va dag'al junli qo'ylarning terisiga yopishib yotadigan ingichka buramdor material hisoblanadi.

Qiltiq-momiqdan dag'alroq va yo'g'onroq tola bo'lib, u buramdor bo'lmaydi, u dag'al junli qo'ylarning jun qatlamiga kiradi.

Oraliq tolalar-momiq bilan qiltiq orasidagi holatni egallaydi.

O'lik tola-dag'al, to'g'ri, qattiq tola bo'lib, sinuvchan bo'ladi va qayta ishlash jarayonida anchasi to'kilib ketadi. Jun tolalarining uzunligi-20-450 mm.gacha hisoblanadi. Jun tolalarining yo'g'onligi-15dan 90 mikrongacha bo'ladi. Junning buramdorligi-1sm tolaga to'g'ri keladigan buramalar soni bilan ifodalanadi.

Momiq ingichkaligi -30mikrongacha, qiltiqniki -50 -90mikron, o'lik tolaniki -50-100 mikron.

Junning pishiqligi ularning ingichkaligi va tuzilishiga bog'liq. Junning tovlanuvchanligi tangachalarning o'lchami va shakliligiga bog'liq bo'ladi.

Bosiluvchanlik- kigiz bosish jarayonida junning kigizsimon to'shama hosil qilish xususiyati. Ingichka, qayishqoq, kuchli buralgan junning bosiluvchanligi yuqori bo'ladi. Mo''tadil sharoitda mayin junning namligi 18%, dag'al junniki esa 15% ni tashkil etadi. Boshqa tolalarga nisbatan junning gigroskopikligi yuqori, u namni shimib, sekin ketkazadi. Issiqlik va namlik ta'sirida tola 60% gacha va undan ko'p uzayish xususiyatiga ega. Jun kislotalar bilan ham, ishqorlar bilan ham ta'sirlanishi mumkin. SHu bois gilam to'qishdan oldin jun iplari achchiq tosh eritilgan suvga ivitilib so'ngra bo'yaladi. Iplar bo'yalgach, namligida qattiq qilib o'raladi, buning sababi jun iplar shunday o'ralganda yo'g'onligi bir xil bo'lib tekislanadi.

Gilam to'qishda nam iplarni dastgohga tortiladi. Sababi namligida iplar kam uziladi va tekis tortiladi. Suyultirilgan 10% li kislotalar ta'sirida junning pishiqligi birmuncha oshadi. Quruq jun tolalari 110 gradus va undan yuqori temperaturada pishiqligini yo'qotadi.

Paxta tolasi – chigitni qoplab turadigan ingichka tolalar bo'lib, u asosan kiyim-kechaklar uchun gazlamalar to'qishda ishlatiladi. Tolaning tuzilishi ularning pishganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Ximiyaviy tarkibi jihatidan paxta deyarli toza tsellyulozadan iborat. Pishgan paxta tolasining 95% tsellyuloza, 4-5% turli aralashmalar-moy, mum, bo'yoq va mineral moddalardan iborat. Tolaning pishiqligi, ularning pishganlik darajasiga bog'liq bo'ladi. Tolalarning uzilishdagi to'liq uzayishi-7-8%. Tolalarning rangi oq, bir oz sarg'ishroq, to'q sariq, ko'kish

va boshqa tabiiy rangdagi tolalar olinadi. Paxtaning suv singdiruvchanligi ancha yuqoridir. Namni tez shimadi va tez ketkazadi, tez quriydi. Paxta tolasi suvga botirilganda shishadi, shunda uzilishga pishiqligi 15-17% ga oshadi. Paxta kislotaga bardoshsiz hisoblanadi, va kislotalar ta'sirida emiriladi. Kislotalar uzoq ta'sir etib turgan iplar quritilgandan keyin pishiqligi pasayadi va iplar tez uzilib ketadi. Sovuq o'yuvchi ishqorlar tabiiy tolalarni shishiradi, ularning buramadorligi yo'qoladi, sirti silliqlashadi, ipakka o'xshab tovlanadi, pishiqligi oshadi, bo'yaluvchanligi yaxshilanadi. Ximiyaviy tozalashda ishlatiladigan organik eritgichlar paxtaga ta'sir qilmaydi.

Lub tolasi – zig'ir poyasidan olinadigan tola juda ingichka, pishiq bo'lib, kam cho'ziladi, suv singdiruvchan bo'ladi.

Jut – dag'al poyalar tolasi, ko'p tarqalgan, namni o'ziga yaxshi tortadi, xossalari kanopnikiga yaqin bo'ladi.

1.4. Gilamlar turlari va tayyorlash texnologiyalari

Qo'lda gilam to'qish O'rta Osiyoda, ayniqsa Turkmanistonda keng rivojlangan. Qo'lda gilam to'qish nihoyatda sermashaqqat ish, to'quvchidan qunt, did va mahorat talab qilinadi. Patli gilamlarni to'qish ayniqsa murakkab. Qo'lda to'qilgan gilam pati, naqsh mujassamoti asos ipiga rangli iplardan tugib bandlar hosil qilinadi. Tugun uchi matoning yuza tomoniga chiqarib tekis qirqiladi, har bir qatordan so'ng arqoq ipi o'tkazib maxsus temir taroqda urib avvalgisiga mahkamlanadi. Tayyor gilam maxsus kimyoviy moddalar yordamida yuviladi. Gilamlar turli hajmlarda tayyorlanadi.

Texnologik jarayon - *to'qishga tayyorgarlik, to'qish va yakunlovchi operatsiyalarni o'z ichiga oladi.*

Tayyorgarlikda tolalarni tozalab, titib, savab, aralashtirib, yigirib har xil ip olinadi. Ip tayyorlashning tartibi quyidagi ketma-ketlikdan iborat; tolalarni titish, savash, cho'zib yigirish, pishitish, bo'yash, tanda ipini qayta o'rash, arqoq ipini namlab o'rash, tanda iplarining pishiqligini oshirish.

To'qish jarayonida tanda iplariga arqoq iplariga nisbatan to'quv stanogi ish organlari kuchliroq ta'sir qiladi. SHuning uchun tanda iplari sifatliroq xom

ashyodan tayyorlanadi, aks holda to'qish jarayonida tanda ipi uzilaverib, ish sur'ati va sifatiga ta'sir qiladi

Yakunlovchi jarayonda dastgohdan olish, iplardan tozalash, tuklarni qirqish va tozalash sifatini tekshirish va tekislash.

To'qimachilik buyumlarni tayyorlash qadim zamonlarda paydo bo'lgan. G'o'za ekish, qo'lda ip tayyorlash va gazlama to'qish Hindiston, Xitoy, Misr va O'rta Osiyoda miloddan bir necha asr ilgari ma'lum bo'lgan. O'zbekistonda to'qimachilik uzoq tarixga ega. O'rta asrlarda mahalliy hunarmandlar tayyorlagan atlas, beqasam, baxmal, banoras, zandanachi, olacha kabi mahsulotlar uzoq mamlakatlarda mashhur bo'lgan. Buyuk ipak yo'li orqali Evropa va yaqin SHarq mamlakatlariga chiqarilgan.

Gilam to'qish uchun qirqilgan junlar yuvilib tozalanadi, temir taroqlarda taraladi, taralgan junlardan ip yigiriladi. Iplar turli tabiiy bo'yoqlar bilan bo'yaladi. SHuning uchun gilam ranglari o'zgarmaydi va o'zining sifatini yo'qotmaydi. Hozirda sun'iy tolalardan ham to'qilmoqda. Gilam er bag'irlab yotiq(gorizontal) va tik (vertikal) o'rnatilgan dastgohlarda to'qiladi. Gilam rivojlangan joylarda to'quv dastgohlari ancha mukammallashtirilgan va bir necha to'quvchi yonma-yon o'tirib birdaniga to'qiyveradigan keng o'q(g'altak)li xillari yaratilgan. Gilamdo'z usta naqsh mujassamotini yodaki yoki nusxa asosida to'qiydi. To'qilishiga ko'ra patli va patsiz gilam turlari farqlanadi. Xalq orasida patli gilam-xolli, patsiz gilam-taqir deb ataladi.

Olacha- ingichka yo'lli mato; odatda, paxta ipidan (arqoq va tanda ipi), bazan ip va ipak (arqoq ip, tandasi ipak) dan qo'lda to'qiladi. Yo'l-yo'l bo'lgani uchun Olacha deb nomlanadi. Tanda ipi bo'yalgani uchun ikki tomoni ham bir hil bo'ladi. Olachaning qoqma(jo'n,qo'zi tish,baliq ko'zi), terma(gulli,ya'ni guli iplarni teribhosil qilinadi, shu sabab terma deb ham yuritiladi). Tanda ipi bo'yalgani uchun ikki tomoni ham bir hil bo'ladi. Olachadan qadimda asosan to'n tayyorlangan.Jun va paxta tolasidan yo'gon iplardan to'qilgan olachadan uy buyumlari (palos,tuz xalta, qoshiq xalta, xurjun, bo'g'jama va boshqalar) tayyorlangan. Hozirda olacha to'qish Samarqand(terma), Jizzax(gulli),

Surxondaryo(gajari), Qashqadaryo viloyatlarining chorva bilan shug'ullanuvchi mahalliy aholisi o'rtasida saqlanib qolgan. Olachalar polga to'shash uchun foydalaniladi. Gilamga nisbatan yupqaroq, naqshlarining yo'nalishi yo'l-yo'l. Yo'l-yo'l bo'lgani sababi tanda ipi rangli iplardan dastgohga tortiladi. Olachaning eni 35-40 smli, uzunligi mo'ljallangan uyning o'lchamiga ko'ra hisoblanib dastgohga iplar tortiladi.

Julxirs - uzun patli (pat uzunligi 0,7-1,5 sm dan, 2sm gacha.)gilam. Bitta to'quvchi to'qishga mo'ljallangan. Odatda alohida (xona razmeriga ko'ra 3; 3,5; 4metrli) to'qilgan bo'laklardan iborat; o'rtadagi ikki bo'lakning eni 0,5 m, ikki chekkadagi bo'lakniki esa 0,4 m, uzunligi 3- 3,5; 2,5-3 m, eni 2-2,5, m. Julhirs chorvachilik bilan shug'ullangan mahalliy xalqlar orasida tuya, qo'y, echki junidan mahsus usulda to'qilgan.Zamini to'q rangda, naqshlari rang-barang (qizil, sariq, ko'k va ularning turlari xamda junning tabiiy rangi –oq, kulrang, jigarrang, qoradan iborat), mujassamotida markaziy maydon chegaralangan; naqshlar bo'yicha keng qatorlarda ingichka yo'llar bilan ajratilgan holda joylashgan yoki ichi naqshlar bilan bezatilgan turli romb, olti, sakkiz burchakli murabbalarning bir-biri bilan tutashgan xandasaviy shakllaridan iborat bo'lgan. Julxirs bo'yicha yo'l-yo'l naqshli gilam – hoshiya tikilgan.Hozirda Jizzax viloyatining Forish, G'allaorol, Baxmal, Samarqand viloyatining Bulung'ur, Jomboy, Urgut, Navoiy viloyatining Nurota tumanlarida mahalliy xalq ustalari tomonidan hozir ham Julxirs tayyorlanadi.

Tolalarni tayyorlash, iplarni yigirish asboblari va qurilmalari

Kerakli jihozlar: **Urchuq** – anor, o'rik, va shu kabi mevali daraxtning to'g'ri shoxidan tayyorlanadi,duk tolalardan qo'lda ip yigirish va pishitish uchun mo'ljallangan moslama yoki qurilma hisoblanadi. SHarq mamlakatlarida qo'l urchuq qadimdan qo'llanilgan bo'lib, mashina urchuqlari 18-asrning ikkinchi yarmida paydr bo'lgan. Qo'l urchuq yog'ochdan uzunchoq shaklda yasalgan moslama bo'lib,ip yigiruvchi uni qo'lda aylantirib turgan. SHunda tolalar (paxta, jun tola) bir-biriga ilashib,cho'zilib va buralib ingichka ipga aylangan.

Urchuq bosh- doira shaklidagi sopoldan yoki toshdan tayyorlanadi. Uning

vazifasi ip yigirishda urchuq tekis aylanishini ta'minlaydi.

Savash cho'pi- Diametri 3-4, uzunligi 100-105 smli 2 juft tut daraxti shoxidan tayyorlanadi, tolalarni urib(savab)shishirish uchun 6 ishlatiladi.

CHARX – Qo'lda ip yigirishda foydalanadigan qadimiy asbob. Unda asosan paxta, jun va boshqa tolalar yigiriladi. Dasta bilan aylantiriladigan g'ildirak baraban shaklida bo'ladi. Paxta va jun tolasidan ip yigirish uchun oldin urchuq, keyin takomillashtirib, charx yasalgan. Keyinchalik mashinada ip yigirishga o'tildgach, charxga ehtiyoj kamaygan, lekin ayrim cheka joylarda undan hali ham foydalaniladi. Hunarmandlar (kulol, misgar, degrezlar) oyoq bilan aylantiriladigan charxdan foydalanadi. O'tmishda charx ip yigirish jarayonida aytilgan, Xotin-qizlarning his-tuyg'ularini ifoda etgan xalq charx qo'shiqlari ham mavjud.

Qo'lda to'qilgan gilamlar neolit davridan ma'lum bo'lgan, keyinchalik jahonning deyarli barcha xalqlari orasida keng tarqalgan. Paxta tolasidan ip yigirish dastlab Hindistonda ma'lum bo'lgan. O'rta Osiyoda paxta ekib, ip yigirish va gazlama to'qish milod boshidayoq rasm bo'lgan edi. Qo'lda yigirishning eng oddiy usuli barmoqlar yordamida tolalardan pilik tayyorlab va uni osilgan holatda ushlab kaftlar orasida asta-sekin ingichkalashtirishdan iborat bo'lgan. Keyinchalik dukli urchuq paydo bo'ldi va ip tayyorlash ancha osonlashdi. O'zbekistonda qadimiy urchuq ancha takomillashtirilib, g'ildirikli charx yasaladi. Bunday charxning g'ildiragi qo'lda aylantiriladi, shunda uning urchug'i chilvir orqali u yoqdan – bu yoqqa buriladi. CHARXda ip yigirish uchun tolalar oldin yog'och taroqlarda tarab tekislab olinadi. Yigirish uchun tayyorlab olingan tolalardan piliklar tayyorlanib, ulardan ingichka yo'g'onligi deyarli bir xil iplar eshiladi. Qo'lda urchuq yigirish hozir ham ayrim tog'li tumanlarda ko'pgina joylarda qo'llaniladi. Urchuqning tashqi ko'rinishi 1- rasmda berilgan.

Jun-qo'y, echki, tuya junlari qirqib olingach, sifatiga ko'ra; yumshoq, dag'al, qiltiq, uzun, kalta sortlarga ajratiladi. Tozalab yuviladi va qoqib – qoqib yoyib quyiladi va quritiladi. Sababi nam xolida qoqilganda tolalarning zichligi kamayadi va undan keyingi jarayon, ya'ni tolalarni **titish** oson kechadi. Qurigan tolalar qo'lda yoki temir taroqlarda titiladi. Titilgan tolalarni o'rab cho'ziladi va bilakka

o'rab yigirish uchun qulay o'ram (**chuyka**)lar tayyorlanadi. Iplarni yigirish **charx** yoki urchuqda bajariladi. CHuyka chap qo'lning bilagiga solinib bir uchidan 20-30 sm.li ipni qo'lda yigirib olinadi. Yigirilgan ipni **urchuqqa** o'rab keyingi yigirish urchuqda davom ettiriladi. Urchuq o'ng qo'l yordamida har zamonda aylantirib turib, so'ng ikkala qo'l yordamida tolalar cho'zib charx yoki urchuqqa uzatiladi va yigirilgan ip urchuqqa o'ralib so'ng yigirish shu zaylda davom ettiriladi. Urchuq og'irlashib boradi, **urchuq bosh** olib tashlanadi va yana yigirish davom etadi. Iplar koptok kabi bo'lgach, urchuqdan olinadi va dumaloqlab o'raladi. O'ralgan ip bir **tin** deb ataladi. Ana shu ipdan ikkitasi qo'shib yigirilsa va pishitilsa, u 2 tin deb ataladi. Hamma iplar pishitilib bo'lingach, iplar bo'yash uchun 8 shaklida qoziqlarga o'ralib **kalava** qilinadi.

Iplarni bo'yash texnologiyasi. Kalava qilingan iplar avval sovuq tuzli suvga 1-2 soat ivib qo'yiladi.

Bo'yash uchun avval tabiiy bo'yoqlardan foydalanishgan.Bo'yoqlar ipning yorqin yoki xira tabiiy rangiga qarab 1 kg ip uchun 1,5-2 osh qoshiq miqdorda, 5-6 litr suvga solinadi. Ipning pishiqligini mustahkamlash maqsadida ip ivitiladigan suyuqlikka **achchiq tosh (javxarlim)** solinadi. Bo'yoqli suv qaynagach, ivitilgan kalavalarining suvi siqilib buyoqqa solinadi 15-20 daqiqa qaynatiladi. Qaynoq kalavalar bo'yoqdan olib, sovuq suvga chayib, osib quritiladi. Iplar sal namligida qattiq qilib dumaloqlab o'raladi. Buning sababi kalava paytida g'ijimlangan joylari bir tekis holga keladi. SHu tariqa iplar to'qishga tayyorlanadi. Gilamlarning to'qish usullariga ko'ra dastgohlarning tuzilishi hamda dastgohlarga iplarni tortish usullari ham turli xil bo'ladi.

Xoli (patli)gilam to'qish texnologiyasi. Gilamga kerakli iplar miqdori: jami 27-30 kg rangli iplar.

1. Erish-10-15kg- qora rangli 2 qavatli pishitilgan ip

2. Rangli iplar 7 xil: 1 qavatli yigirilgan ip. - och qizil iplar – 4 kg, - to'q qizil iplar – 5 kg, - yashil iplar – 3 kg, - oq iplar - 1,5 kg, - bo'yalgan qora iplar – 9 kg, - bo'yalmagan qora iplar – 3 kg, - ko'k iplar - 1,5 kg, - pushti (gulob) ip - 1,5 kg.

3. Arqoq ip - 6-7 kg.

4. Kuzuv ip - diametri: 5 mm li pishitilgan paxta ip.

Ish qurollari: Har bir to'quvchiga:

1. pichoq; 2. qaychi; 3. yog'och taroq; 4. dastgoh - diametri 15-20 sm li yog'ochdan tayyorlanadi; 5. odarg'a - diametri 10-15 sm li yog'ochdan tayyorlanadi; 6. bordi-keldi - diametri 5-6 sm li yog'ochdan tayyorlanadi.

Tayyorlangan erish ipi 4,5x5 o'lchamdagi to'rt burchakli dastgohga 8 shaklida tarang tortiladi. Har bir tortilgan erish oralig'i - bosh tomoni 0,7 sm, oxirgi tomoni 1 sm bo'ladi. Tortilgan erish qatorining soni 360 dan 450 tagacha bo'lishi mumkin. Erish tortilgach, bosh tomonidan 1 metr tashlanib, kuzuv ip odarg'a – xodaga dastgohning tagki ipidan aylantirib o'rab chiqiladi. Odarg'a dastgohga tortilgan ipdan 10-12 sm balandlikda ko'tarilgan bo'lishi kerak. Dastgohga tortilgan iplarning oxirgi tomonidan erishlar orasidan xoda- (bordi-keldi) solinib, tortilgan kuzuv ipgacha olib kelinadi. SHundan so'ng to'qish boshlanadi.

To'qish uchun quyidagi ish qurollari bo'lishi kerak:

Har bir to'quvchiga: 1 ta pichoq, 1ta qaychi, 1ta yog'ochdan tayyorlangan taroq. To'quvchilar soni 3 nafardan kam bo'lmasligi kerak. Bitta usta (ya'ni bosh tajribali to'quvchi) ikki nafar shogird ya'ni, yaqinda o'rgangan to'quvchilar o'tiradi. Ustalar bir kishi bo'lsa, gilamning o'rtasida o'tirib, ikki yoniga yosh to'quvchilarni o'tqazib to'qishni boshlashadi. Ustalar ikkita bo'lsa gilamning ikki chetida o'tirib o'rtaga shogirdlar o'tirishadi. Ayniqsa, xoli gilam to'qishda ikki nafar usta bo'lgani yaxshi, chunki bu gilamning ikki chetini to'qish o'rtasiga nisbatan ancha murakkabrok hisoblanadi. Gilamning ikki chetiga 3-4 smli patsiz holda arqoq ipi 2 qavatli qilib to'qiladi. Gilamning boshida va oxirida ham 6-8 smgacha patsiz holda to'qiladi. Sababi gilamning cheti qalin ipdan to'qilganda cheti qayrilib qolmaydigan, tekis, chiroyli qilib to'qilishi kerak. Ustalar gilamga namunaga tayanib yoki biror gilam naqshiga qarab naqsh tanlashadi. Xoli gilamda esa, arqoq, bir xil rangdan, gilamning pati esa rangli iplardan to'qiladi. Xoli gilamni patini qirqish uchun har qator to'qilganda pichoqda yoki qaychida chiqib qolgan patlarni kesiladi keyin taroqda urib zichlab to'qiladi. Patli gilamning

murakkab va og'ir mehnat talab qilinishi ham shundan hisoblanadi.

Gilamning Moskva, Qalqon, Qozoqi, Qo'chqor shox, Atirgul kabi naqshlar bilan, chetlariga esa, turli xil xandasaviy shakllar bilan bezatiladi. To'quvchilar o'zlarining ijodkorligiga ko'ra ham naqshlar taklif qilishlari ham mumkin.

Gilamning boshlanish qismini rangli iplardan boshlamasdan qalin rangsiz ipni erishlar(tanda iplar) orasidan tortib, o'tkazib olinadi. 5-6 smli 2xil rang(qora, yashil bo'lishi mumkin) arqoq o'tkazgandan so'ng to'qib olinadi. So'ngra rangli iplardan foydalanib to'qish boshlanadi. Boshlashda Oq, Siyoh rang qolip solinadi, bunda bo'yalmagan qora ip ishlatiladi. Keyin hoshiya (miyiz nusxa) solinadi. Hoshiyadan keyin Sariq-siyoh rang qolip solinadi, so'ngra, teg, gilamning asosining – qizil yoki qora rangda bo'ladi, keyin tanlangan naqsh solinib to'qish davom ettiriladi.

Taqir (patsiz) gilam. 3x2 o'lchamda to'qish. Gilamga kerakli iplar miqdori; Jami 17-20 kg. SHundan:

1. Tanda ip -8-10-kg- 2 qavatli pishitilgan ip
2. Arkog'ig'a- Rangli iplar 7 xil bo'ladi, jumladan 1 qavatli yigirilgan ip: -och qizil – 2 kg, - tuk qizil – 2 kg, - yashil rang - 1,5 kg, - oq rang - 1,5 kg, - bo'yalgan qora rang – 4 kg, - bo'yalmagan qora rang - 1,5 kg, - ko'k rang - 1,5 kg, - sariq - 1,5 kg, - pushti (gulob) rang - 1,5 kg. - kuzuv ip - diametri: 1,5 sm li pishitilgan paxta ip.

Ish qurollari: Har bir to'quvchiga: 1 tadan pichoq: 1tadan qaychi, 1tadan yog'och taroq. Dastgoh - diametri 15-20 smli yog'ochdan tayyorlangan. Odarg'a - diametri 10-15 sm li yog'ochdan tayyorlangan. Bordi-keldi- diametri 5-6 smli yog'ochdan tayyorlangan.

Tayyorlangan tanda ipi 4,5x5 razmerdagi to'rt burchakli dastgohga X shaklida tarang tortiladi. Har bir tortilgan tanda oralig'i- bosh tomoni 0,7 sm, oxirgi tomoni 1 sm bo'ladi. Tortilgan tanda qatorining soni 300 dan 400 tagacha bo'lishi mumkin. Tanda tortilgach, bosh tomonidan 1 metr tashlanib, kuzuv ip odarg'a – xodaga dastgohning tagki ipidan aylantirib o'rab chiqiladi. Odarg'a dastgohga tortilgan ipdan 10-12 sm balandlikda ko'tarilgan bo'lishi kerak. Dastgohga tortilgan iplarning oxirgi tomonidan tandalar orasidan xoda- (bordi-

keldi) solinib, tortilgan kuzuv ipgacha olib kelinadi. SHundan so'ng to'qish boshlanadi.

Taqir gilamning Xoli gilamdan farqi-gilam asos ipiga sidirg'a rang pishitilgan ip tortilib, rangli iplardan arqoq solinadi, pat solib to'qilmaydi. SHu sababli taqir deyiladi. Pichoq va qaychi ishlatilmaydi. Xoli gilamga esa erish va arqoq ipi bir xil rangdan, gilamning pati esa rangli iplardan to'qiladi.

Taqir gilamlarga ham chetiga bir xil rangli ipdan qolip solinadi va so'ng naqshlar solib to'qiladi. CHetki naqshlar xalq tilida miyiz deb aytiladi.

Taqir gilamning ham yuzasiga esa turli xil naqshlar solib to'qish mumkin. YAngi naqshlarni usta to'qib boshlaydi, shogirdlar esa usta nazorati ostida uning harakatlarini takrorlab gilam to'qiydilar. YAngi naqshlarni usta namunadagi naqshga qarab yoki tasavvur qilib to'qishi ham mumkin.

Olacha to'qish. (sholcha). O'lchami (3x2)olacha uchun eni 40sm .

Olachaga kerakli iplar miqdori; Jami :12- 14 kg rangli ipdan

1. Tanda ip - 8-10 kg - 2 qavatli pishitilgan ip; - och qizil rangli ip -2 kg; - to'q qizil – 2 kg; - yashil rangli ip 1,5 kg; - oq rangli ip – 2 kg; - qora rangli ip – 2 kg; siyoh rangli ip - 1,5 kg, - sariq rangli ip - 1,5 kg.
2. Arqog'iga – 2 kg qora rangli 1 qavatli yigirilgan ip.
3. Kuzuv ip - diametri: 1,5 sm li pishitilgan paxta ip.
4. Dastgohi – 2 ta oyoqli ayri tayoq, - *Kuzuv yog'och* - diametri 10 sm li pishiq quruq yog'och, ikki uchida oyoqlarga o'rnatish uchun kichik diametrli teshik bor. *Seruv* - diametri: 3-4, bo'yi 90-100 sm li pishiq to'ri yog'och: - *YOn tayoq* - qalinligi 1,5-2 sm, bo'yi 60-65 sm li pishiq yog'och:
5. Ish qurollari: *Qilich* – shakli pichoqqa o'xshash, uzunligi 60-70 sm, Qalinligi: tig' qismi 0,5 sm, ort tomoni 2-3 smli og'ir pishiq yog'och: *pichoq* - uzunligi 50-60 sm, qalinligi: 1sm, engil, pishiq yog'och.

Hisoblash usuli quyidagicha: 3x4 metrli olacha uchun, olachaning eni 40 smli uzunligi qancha bo'lishi kerak? $400:40=10$. $10 \times 3m=30m$. YA'ni, 3x4 o'lchamli olacha uchun eni 40 sm, uzunligi 30 metrli olacha to'qiladi. Dastgoxning tuzilishi 2- rasmda ko'rsatilgan.

Julxirs – (julvaraq) to'qish. O'lchami (3x2) uchun eni 50smli, uzunligi 12-13 metr.

Julxirga kerakli iplar miqdori: jami 12- 14 kg. shundan:


1. Tanda ip – 2 kg - 2 qavatli pishitilgan, sidirg'a rangli ip;
2. Pat - 10-15 kg 2 qavatli yigirilgan ip - och kizil rangli ip – 2 kg, to'q qizil rangli ip – 2 kg, yashil rangli ip - 1,5 kg, oq rangli ip – 2 kg, rangli ip -1,5 kg, sariq rangli ip - 1,5 kg;
3. Arqog'iga - 1,5-2 kg 1 qavatli yigirilgan ip;
4. Kuzuv ip - diametri: 1,5 sm li pishitilgan paxta ip;
5. Dastgoh - diametri 15-20 sm li yog'ochdan tayyorlangan .
- Kuzuv yogoch - diametri 10smli pishiq quruq yog'och, ikki uchida oyoqlarga o'rnatish uchun kichik diametrli teshik bor. Odarg'a- diametri 10-15 smli yog'ochdan tayyorlangan, bo'yi 70-80 smli pishiq to'g'ri yog'och;
6. Ish qurollari: 1 ta pichoq: 1ta qaychi, 1ta yog'och taroq.

Kigiz bosish san'ati qadim zamonlardan beri rivojlanib kelayotgan xalq amaliy san'ati turlaridan biri. O'zbekiston hududining qaysi joyida xalqlar chorvachilik bilan shugullangan bo'lsa, shu erda kigiz bosish kasbi keng tarqalgan. Bu san'at turi O'rta Osiyo va Qozogistonda qadimdan rivojlanib kelgan. Otabobolarimiz kigizni erga bo'yra ustidan solishgan, o'tovlarni o'rashgan, qalpoq, piyma va boshqalarda ishlatishgan. Ayrim hollarda guldor, chiroyli kigizlar badiiy buyum sifatida ishlatilgan. Kigiz oq, qizil, qora, guldor va gulsiz bo'ladi. Surxondaryo hamda Qashqadaryo viloyatlarida qoraqo'y va chaydim kigizlar, Xorazmda esa takyanamat xillari bor.

Bosiluvchanlik- kigiz bosish jarayonida junning kigizsimon to'shama hosil qilish xususiyati. Ingichka, qayishqoq, kuchli buralgan junning bosiluvchanligi yuqori bo'ladi. Normal sharoitda mayin junning namligi 18%, dag'al junniki 15% ni tashkil etadi. Boshqa tolalarga nisbatan junning gigroskopikligi yuqori, u namni shimib, sekin ketkazadi. Issiqlik va namlik ta'sirida tola 60% gacha va undan ko'p uzayish xususiyatiga ega. O'zbekistonda kigiz bosishning o'ziga xos tomonlari bo'lib, kigiz bosish quyidagi texnologiyada bajariladi. Kigiz qo'yning kuzgi

junidan yoki echki junidan tayyorlanadi. Jun titib tozalanadi, yuvib quritiladi. SHundan so'ng maxsus savagichlar yordamida yaxshilab savaladi, ya'ni titiladi. Bu jarayondan so'ng jun rangi va sifatiga ko'ra yuzlik, oraliqqa, tanlab ajratiladi, yuziga maxsus rang bilan bo'yalgan mayin junlardan naqshlar ishlanadi.

Kigizchilik-kigiz tayyorlash kasbi.Qadimdan, asosan, chorvachilik bilan shugullanadigan xalqlar orasida keng tarqalgan.O'rta Osiyo, Qozogiston, jumladan, O'zbekiston hududi (Surxondaryo, Qoraqalpoq, Xorazm, Fargona vodiysi)da kigizning guldor, ifodali rang-barang naqshli turlari tayyorlanadi kigizchilik bilan asosan ayollar shugullanadi.YUvib tozalangan, savalgan jun navlari bo'yicha (yuzli-kigizning yuzi uchun, oraliq, orqalik)ajratiladi. Ho'llangan jun namat(yoki bo'yra)qolip ustiga tekis yoyiladi; avval kigizning yuza- gulli qismi rangli junlardan to'shab hosil qilinadi, so'ng oraliq va navbati bilan orqaliq qismlari bir tekisda yoyib chiqiladi, ustidan qaynoq suv quyiladi, so'ng namat(yoki bo'yra)dumalatib bo'rab yigiladi, arqon bilan boglanadi. O'ram oyoq bilan tepiladi, bilaklanadi, dumalatiladi, vaqti-vaqti bilan suv sepib ho'llab turiladi. Ma'lum vaqtdan so'ng o'ram echiladi, suv sepiladi va yana o'raladi hamda tayyor bo'lgunga qadar bostirish davom ettiriladi, so'ng tayyor bo'lgan kigizga so'nggi pardoz beriladi, ya'ni chetlari tortiladi,tekislanadi, ortiqcha tuklari qirqib tashlanadi.



II BOB Umumiy o'rta ta'lim tizimida moddiy qadriyatlar sifatida xalq hunarmandchilini o'rganishning mazmuni va tuzilishi

2.1§ Mehnat va kasb ta'limi tizimida xalq hunarmandchiligining moddiy qadriyatlar sifatida o'rganish va o'rgatishning ahvoli.

Ta'lim tizimida umumta'lim maktablari va ularda o'rgatiladigan turli yo'nalishdagi fanlar yosh avlodning shakllanishida muhim o'rin egallaydi. Hozirgi davrda «Ta'lim to'g'risida»gi Qonun asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qish muddati 9 yil qilib belgilandi va bolalarning yosh, individual psixofiziologik, aqliy rivojlanishiga ko'ra 6-7 yoshdan qabul qilinib, bilimlarni o'zlashtirishga asosan 1-9 sinflar, ba'zi hollarda eksternet tipidagi ta'limga ham ruxsat etiladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yoshlarning mehnat ta'limi tarbiyasi, tayyorgarligi asosan, shu nomdagi o'quv fani negizida olib boriladi.

Mehnat ta'limining ta'lim muassasalari o'quv rejalariga fan sifatida, o'quv predmeti sifatida kiritilganligiga 100 yildan oshganligiga qaramay (1883 y. fan olimi E.Signues) hanuzgacha, butun, yaxlit tizim sifatida to'liq shakllanib, tashkil etilish maqsadlarini va vazifalarini to'liq safarbar eta olgani yo'q. To'g'ri, yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligi, tarbiyasi, ta'limi bo'yicha juda yirik, salmoqli tadqiqot ishlari, kuzatishlari olib borilgan. CHet el va Respublikamiz olimlari bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlarida, turli xil materiallar, qo'llanmalar, monografiyalar, dasturlar tayyorlashlarida chop etishlarida yirik natijalarga erishdilar. Respublikamizda yoshlarning mehnat va kasbiy tayyorgarligining turli sohalari, muammolarni tadqiq etish bilan pedagog olimlardan U.N.Nishonaliyev, N.Sh.Shodiyev, T.T.Magzumov, E.T.Choriyev, A.I.Vorobyev, N.S.Sayidaxmedov, Ya.Xaydarov, A.R.Xodjaboyev, R.X.Jo'rayev, O.Xayitov, R.Mavlonova, K.Davlatov, J.Ramizov, K.Mirsaidov, A.Ismoilov kabilar ko'pgina ishlarni olib bordilar, o'z tadqiqotlari natijalarini monografiyalar, qo'llanmalar va tavsiyanomalar ko'rinishlarida chop etdilar.

Mehnat tarbiyasi, qishloq maktablarida o'quvchilarning mehnatsevarlik xislatlarining shakllanishi masalalarini E.T.Choriev o'zining «O'zbekiston qishloq

maktablarida o'quvchilarning mehnat tarbiyasi» deb nomlangan o'quv qo'llanmasida, o'quvchilar mehnatini tashkil etish, qishloq maktabida mehnat tarbiyasining mazmun, shakl, uslublarini yoritib o'tdi. Ushbu qo'llanmada olim respublikamiz xalq xo'jaligining asosiy sohalaridan hisoblangan qishloq xo'jaligida mehnat qilayotgan o'quvchilarning yosh xususiyatlarini, mahalliy sharoitlarda mehnat tarbiyasi shakllari va mazmuni, ushbu tarbiyaning o'ziga xos yo'nalishlari, shakl va vositalarini etarlicha tahlil etadi. Mehnat tarbiyasining shaxs fazilatlarining shakllanishidagi etakchi o'rmini belgilab berishga muvaffaqiyatli harakat qiladi. Yirik pedagog olim U.N.Nishonaliyevning asosiy olmiy ishlari, tadqiqotlarining natijalari oliy ta'lim pedagogikasini, didaktikasini rivojlantirishga qaratilgan. U o'zining «Mehnat ta'limi o'qituvchisi shaxsiyati shakllanishi: istiqbol va muammolari» nomli monografiyasida mehnat va kasb ta'limi o'qituvchisini oliy pedagogik ta'lim tizimida tayyorlash muammolarini tahlil etadi. Mehnat ta'limi o'qituvchisining ushbu sohani tashkil etishda, etakchilik qilishida uning shaxsiy, kasbiy fazilatlarining shakllanganligi ham muhim o'rin tutadi. Ushbu ta'lim sohasining o'ziga xos murakkabligi, ko'p qirraligiga, amaliyligi, ishlab chiqarishligi va boshqalar shu soha o'qituvchisining kasbiy va shaxsiy fazilatlarining shakllanishi ko'lamini sohalarida ko'rinadi. «Mehnat ta'limi o'qituvchisi-tegishli predmetni o'qitish uchun pedagogik ma'lumotga va kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassis bo'lib, umumta'lim maktablari, o'quv-ishlab chiqarish kombinatlari va hunar-texnika o'quv yurtlarida doimiy mashg'ulot olib boradi, jumladan, yo'nalishlarda texnik (metallarni, metalmaslarga va yog'ochlarga ishlov berish) IV-VIII sinflarda qishloq xo'jaligi mehnati, IX-X sinflarda metallarga ishlov berish, qishloq xo'jaligi mexanizasiyasi, avtomobil ishlari, chizmachilik va b.

Demak, ushbu fikr-mulohazalardan ko'rinib turibdiki, mehnat ta'limi sohasi, jumladan uni o'qitadigan o'qituvchi kasbiy faoliyati, bilim ko'nikma va malakalari juda xilma-xildir. Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlari, sohalarini juda rang-barang bo'lishi ushbu fan to'g'risida yaxlit, mukamallashgan tushunchalarning bir butun tizim sifatida uyg'unlashmaslikka olib keldi. Chunki, mehnat ta'limining, ya'ni

bevosita o'quvchilarning qaysi sinflarda qanday bilimlarni o'zlashtirishlari, Qanday ko'nikmalarni shakllantirishlari va rivojlantirishlarini bir tizimga solish uchun maxsus tadqiqotlar obekti qilib tanlanib, yirik ko'lamda ishlar olib borilishi lozim.

Yuqorida nomlari keltirilgan manbalar va taxlil qilgan boshqa materiallar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalq hunarmandchiligi mehnat ta'limining poydevoriy zamini sifatida ta'lim tizimida o'rganish va o'rgatish maqsadida jiddiy tadqiqotlar olib borilayotgani yo'q. Xalq hunarmandchiligi yo'nalishlaridagi yumushlar bevosita qo'l mehnati vositasida bajarilishi, O'zbekiston, Sharq xalqlarining (qolaversa, barcha xalqlarning milliy, ma'naviy, tarixiy, madaniy, etnik, mahalliy xususiyatlarini o'zida mujassamlantirganligi va boshqa ko'p jihatlari bevosita mehnat ta'limining o'rganish va o'rgatish obekti bo'la olishiga zamin yaratdi. Mehnat ta'limining yaxlit, mukamallashgan tizimining to'liq yaratilganligi va ushbu ta'limning mavjud an'aviy tuzilishida xalq hunarmandchiligining o'rnini belgilash zaruriyati tadqiqotimizning muhim vazifalaridan birining shakllanishiga olib keldi. Biz izlanishlar olib borish jarayonida mehnat ta'limidan berilayotgan bilimlarni, shakllantirilayotgan ko'nikmalarni bir tizimga solishga va ushbu tizimda xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish mazmunini yoritishni o'rnini belgilashni muhim vazifalardan deb hisobladik.

Jamiyatimizdagi ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar o'quvchilarning turli sohalar bo'yicha bilim olishlariga, kasbiy ko'nikma va bilimlarini shakllantirishlariga, o'quv tarbiyaviy tadbirlar tizimiga ta'sir etmasdan qolmaydi. Umumta'lim maktablarida o'quvchilar ma'lum o'quv predmetlari tizimini o'rganish orqali, turli fanlar asoslari, tabiat xalq xo'jaligi, sanoat qurilish, san'at, qishloq xo'jaligi to'g'risidagi boshlang'ich bilimlarni o'rganadilar, umummehnat, mehnat va boshlang'ich kasbiy ko'nikmalarni shakllantiradilar.

O'zgarayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar o'quvchilarning mehnat kasbiy tayyorgarligini amalga oshiradigan o'quv predmetlarining har bir mavzuini, bobini, bo'limini, mazmunini, maqsadini, tuzilishini yaxshilash uchun zaruriy sabablardan hisoblanadi.

Umumta'lim maktablari o'quvchilarning xalq hunarmandchiligi bo'yicha mehnat faoliyati tayyorgarligi jarayonida ishtirok etuvchi 50 dan ziyod o'quv elementlarini (o'quv-tarbiyaviy tadbirlar majmuini nazariy va amaliy ishlab chiqarish darslari, sinfdan va maktabdan tashqari mashg'ulotlar, kechalar, to'garaklar, sayohatlar va b.) biz shartli ravishda kasblarni o'rganishga tayyorgarlik modeli deb nomladik va Ilova – 1 da keltirdik: O'quvchilarning ilova-1 dagi kasblarni o'rganishga tayyorgarlik jarayoni modeli asosan, 52-60 Ueni (o'quv elementini) o'z ichiga qamrab olgan bo'lib, asosan 3 bo'limga ajratdik: (hozirgi davrdagi an'anaviy tuzilish bo'yicha)

- Huquqiy, mafkuraviy tayyorgarlik

- Umumiy, tabiiy tayyorgarligi

- Xususiy, umumiy texnika-texnologik Biz tadqiqotlarimizni olib borish davomida guruhga taaluqli o'quv kurslari tarxi fanlari tizimi, tillarni o'rganish yo'nalishidagi fanlar (o'zbek, rus, chet tili), musiqa kabi fanlar biriktirilgan.

Fanlari guruhi o'quvchilariga tabiiy fanlar bo'yicha, raqamlar, 4 amal, sonlar, kattaliklar, tabiat predmetlari hodisalari va ularning sabablarini asoslab beruvchi, o'quvchilarga mehnat obektlarini tanlashda materiallar va ularning tabiatda uchrashi, birikmalar, qotishmalar, oddiy va murakkab moddalar, aralashmalar, moddalarning 4 agregat holati organik (tirik) va anorganik moddalar va ularning tuzilishi va boshqalar to'g'risida umumiy ma'lumotlar berib, tabiiy fanlar asoslarinio'rgatishni o'z oldiga maqsad qilib qo'yadi.

Guruhidagi 30 dan ziyod o'quv elementlari o'quvchilarning umummehnat kasbiy, politexnik tayyorgarligidagi, ularni unumli mehnat va kasblarni faoliyatiga tayyorlashda amalga oshiriladigan bevosita yoki bilvosita ravishda unumli mehnat jarayoni bilan tanishtirishga yo'naltirilgan tadbirlar hisoblanadi.

Albatta, bu guruhdagi o'quv elementlari orasida mehnat ta'limi mashg'ulotlari asosiy o'rinlarni egallaydi. Hozirgi zamon o'rta umumta'lim maktablarida 3 tipga bo'linadi:

1. Nazariy bilimlarni o'zlashtirish darslari.

2. Amaliy (umummehnat, maxsus, boshlang'ich, hunar) ko'nikma va malakalarni shakllantirish darslari.

3. Ishlab chiqarish darslari.

Mehnat ta'limi darslari o'zining o'quv-moddiy metodik ta'minotining ko'proq ko'lamda talab etilishi, amaliy usul, vosita va harakatlarni bajarishga ehtiyoj mavjudligi bilan, boshqa predmetlardan (M: tillarni o'rganish yo'nalishidagi va ijtimoiy-huquqiy fanlardan) tubdan farq qiladi.

Hozirgi zamon sharoitida mumta'lim maktablarida asosan 3 katta yo'nalishda tashkil etilmoqda. Biz o'rta umumta'lim maktablaridagi an'anaviy mehnat ta'limi o'quv mavzularini shartli ravishda o'quv elementlariga ajratib, IV-IX sinflar uchun jami 300 ga yaqin o'quv elementidan tuzilganligini aniqladik .

I-yo'nalish. O'g'il bolalar uchun texnikaviy mehnat (an'anaviy tuzilishi) a) YOg'ochlarga ishlov berish

b) Metallarga ishlov berish

v) Elektrotexnika va radioelektronika ishlari .

O'g'il va qiz bolalarning qishloq xo'jalik mehnati.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asoslari

b) Mevachilik asoslari

v) Gulchilik asoslari

g) Agronomiya asoslari (o'simliklarni ekish va parvarishlash, b.)

d) Zootexnika va zooveterinariya, chorvachilik;

e) Ershunoslik. Biz bu bo'limlarni o'quv elementlariga ajratishni lozim deb topmadik. Chunki hozirgi zamon sharoitida maktablarda biz o'quv elementlariga ajratib tahlil qilgan bir yoki bir necha ko'rinishdagi mehnat ta'limi mazmuni bilan chegaralandik. Sh-yo'nalish. Qiz bolalar uchun xizmat ko'rsatish mehnati.

a) Uyshunoslik asoslari .

b) Oziq-ovqat mahsulotlariga ishlov berish kulinariya asoslari.

v) Gazlamaga ishlov berish

Yuqoridagi 1,2,3 yo'nalishdan tashqari yuqori sinf o'quvchilariga «Ishlab chiqarish asoslari», «Kasb tanlash», «CHizmachilik asoslari», «Mehnat ta'limi

amaliyot praktikumlari» kurslaridan iborat. Biz tadqiqotimizning tasdiqlovchi tajribalarini olib borish vaqtida hozirgi vaqtda maktablarda qo'llanilayotgan tarkibida 300 ga yaqin o'quv elementi bo'lgan mehnat ta'limining an'anaviy mazmuni bilan tanishib chiqib ushbu tuzilishni chuqur taxlil etish bilan bir qatorda o'quvchilarning ishlab chiqarish, amaliy mehnati jarayonida qatnashishini ta'minlaydigan sinfdan va maktabdan tashqari ta'limiy-tarbiyaviy tadbirlar majmuini ham kuzatdik. Tadqiqotimiz mobaynida tasdiqlovchi –tajribani o'tkazish mobaynida respublikamiz maktablarida an'anaviy ravishda mehnat ta'limining o'quvchilar unumli mehnatini tashkil etish bo'yicha qo'yidagi sinfdan va maktabdan tashqari shakllari mavjudligini kuzatdik;

I. Sinfdan tashqari ko'rinishlari;

1) Mehnat ta'limidan tashkil etiladigan to'garaklar:

a) xavaskorlik-avtoxavakorlik, motoxavaskorlik va x.k.

b) modelchilik – sudomodelchilik, avtomodelchilik, qishloq xo'jalik mashinasi modellashtirish va x.k.;

v) Yosh mutaxassislar – «Mohir qo'llar» to'garaklari – «Yosh duradgor», «Yosh tikuvchi», «Mohir oshpaz», «Yosh mexanizator», «Yosh avtoinspektor» va b.

2. O'quv ustaxonasidagi amaliy ishlab chiqarish mashg'ulotlari.

3. Ishlab chiqarish sayohatlari.

4. Maktab o'quv tajriba er uchastkasida ishlash.

5. Jonli burchakka (quyonchilik, baliqchilik, yovvoyi jonivorlar va b. qarash).

6. Mehnat va urush faxriylariga yordam ko'rsatish.

7. Maktabda tashkil etiladigan turli shanbaliklarda ishtirok etish.

8. Maktablararo, tuman, viloyat, respublika miqyosida o'tkaziladigan «YOsh mutaxassislar» ko'rik konkurslarida ishtirok etish.

9. Navro'z mehnat bayrami tantanalarida ishtirok etish.

II. O'quvchilarning amaliy mehnatini tashkil etish bo'yicha maktabdan tashqari ishlar:

1. O'quvchilar ishlab chiqarish brigadasida ishlash;

2. O'quvchilar kompleks mexanizatsiyalashgan ishlab chiqarish, uyushmalari.
3. Guruhli, ijara, pudratida ishlash.
4. Qo'shma, xususiy va shaxsiy korxonalar, oilaviy kooperativlar faoliyatida ishtirok etish.
5. Oilaviy mehnat, kasb-hunar, hunarmandchiliklar sulolasini davom ettirishda.
6. Qishloq xo'jaligi mavsumiy ishlarida ishtirok etish;
7. Otalik korxonasi bilan shartnomalar asosida turli xil buyurtmalar bajarish.
8. Xalq hunarmandchiligi sohaslarini o'rganish bo'yicha ustoz shogirdlik tizimida faoliyat ko'rsatish.

Mehnat va kasb ta'limining turli sohaslaridagi muammolarini tadqiq qilingan va natijalari yoritilgan manbalar tahlili, ta'lim tizimining turli bo'g'inlarida, turli muassasalarida olib borgan kuzatishlarimiz shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarini bitirgan o'quvchilarning ko'pchiligi tarkibida xalq hunarmandchiligi yo'nalishlari, sohalari mavjud bo'lgan kasb-hunar o'quv yurtlariga ham o'qishga kiradilar. Demak umumta'lim maktablarida umumta'lim predmetlarini o'rganish asosida egallagan bilimlar, o'zlashtirgan ko'nikmalari mazmunida bevosita xalq hunarmandchiligi sohalari, mohiyati to'g'risida boshlang'ich bilim ko'nikmalariga taaluqli bo'lmasa-da, amalda, hayotda, ushbu soha bilimlari, ko'nikmalari chuqur egallanishi lozim bo'lgan kasb ta'limi o'quv yurtlariga o'qishga kirishga majbur bo'ladilar. Bundan ko'rinadiki, umumta'lim maktablarida xalq hunarmandchiligini tizimli ravishda o'rganishga va o'rgatishga bo'lgan ijtimoiy buyurtma mavjud, ammo bu ta'limning tabiiy ehtiyojga aylangan buyurtma bajarilmasdan kelmoqda deyish mumkin.

Mehnat va kasb ta'limi sohasida olib borgan ko'p yillik kuzatishlarimiz va tadqiqotlarimizni umumlashtirgan holda qo'yidagi xulosalarni bayon etmoqchimiz:

1. Ta'lim tizimining muhim bo'g'inlaridan biri hisoblangan umumta'lim maktablarida o'qitilayotgan mehnat ta'limi yagona tizimga solingan emas.
2. SHu paytgacha mehnat va kasb ta'limi sohasida olib borilgan tadqiqot ishlari, monografiyalar, o'quv-qo'llanmalari, dasturlar va boshqalar mazmunida

xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish muammosi to'liq ochib berilmagan.

3. Umumta'lim maktablaridagi ta'lim mazmuniga xalq hunarmandchiligini kiritishga ijtimoiy buyurtma mavjud, ammo, bu buyurtma mazmunan ham, shaklan ham mehnat ta'limi fanlari xususiyatiga mos keladi.

4. Umumta'lim maktablaridagi mehnat ta'limi o'quv-dars mashg'ulotlari, to'garaklar, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar mazmunida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish singdirilsa, bu hol ushbu ta'lim sohasining etnik, tarixiy, metodologik, mahalliy, ma'naviy, ma'rifiy zaminini yaratishga asos bo'ladi.

5. Mehnat va kasbiy ta'lim tizimida xalq hunarmandchiligi mazmuni aks ettirilgan o'quv-metodik majmualar, dastur, darslik, qo'llanmalar va b., hamda o'quv-me'yoriy hujjatlar (konsepsiya, standart, taraqqiyot dasturi va o'quv rejalari) ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir.

6. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarining mehnat va kasbiy ta'lim tizimiga kiritilishi o'quvchilarning yosh, psixofiziologik, individual va aqliy xususiyatlariga mos kelishi to'g'risidagi turli tadqiqotlar, o'tkazish uslubiy ishlanmalar yaratish maqsadga muvofiqdir.

2.2§ 1-9 – sinflar mehnat ta'limi mashg'ulotlarida xalq hunarmandchiligini o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida tashkil etiladigan mehnat ta'limi mashg'ulotlari ushbu turkum ta'limni amalga oshirishda, o'quvchilarning umummehnat, mehnat, maxsus bilim, ko'nikmalarini shakllantirish va rivojlantirishda etakchi o'rin egallaydi. Mehnat ta'limi mazmuni, mohiyati va vazifalariga ko'ra barcha ilmiy, tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy bilimlarni umumlashtirib, uyg'unlashtirib, mujassamlashgan holda amaliyotga tadbiq etishni ko'zda tutadi. Shu jihatdan olib qaraganda mehnat ta'limi maktab tizimi umumta'lim fanlaridan o'rganiladigan nazariy bilimlarni amaliyot, ishlab chiqarish bilan quvvatli didaktik vositadir.

Biz tadqiqotimizni olib borish jarayonida avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablarida mehnat ta'limining maqsad va vazifalarini belgilab olishni nazarda tutdik:

Maktabgacha ta'lim-tarbiya bosqichida bolalarning yosh, ruhiy va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda mehnat dunyosi, jarayoni, kishilari, buyumlari to'g'risidagi dastlabki tushuncha va tasavvurlar uyg'otish, maqsadli ish-harakat usullari ko'proq o'yinlar tarzida o'rganib boriladi.

Boshlang'ich maktabda (I-IV sinflar) o'quvchilarni mehnat va hunarmandchilik dunyosi, o'simliklarni parvarish qilish, turli materiallar bilan tanishtirish, oddiy ishlov berish, oddiy mehnat va hunarmandchilik asboblari va mehnat, ish-harakat usullari to'g'risida sodda tasavvurlar hosil qilishni ko'zda tutadi. Bu davrda o'quvchilar mehnat ta'limidan o'zlashtirgan bilimlar ko'lamini o'zlarining hayotiy tajribalarida va oiladagi mehnat jarayonida mustahkamlaydilar va kengaytirib boradilar.

Tayanch maktablarda (V-IX – sinflar) da o'quvchilar umummehnat ko'nikma va malakalarini shakllantiriladi, qiziqish va moyilliklariga ko'ra, o'z-o'zini kasbiy jihatdan aniqlashlari, kasb-hunar turlarini tanlashlarini ta'minlanadi, qiziqish va moyilliklari rivojlantiriladi, umummehnat madaniyati shakllantiriladi va rivojlantiriladi, xalq xo'jaligi va hunarmandchilikning sohalari, ularda ishlatiladigan asbob-uskunalar, texnika va texnologiya bilan tanishtiriladi, mehnat faoliyatining turli qirralarida ishtirok etishlari ta'minlanadi.

Yuqori sinflarda mehnat ta'limi va kasblarga yo'naltirish kursi-ishchi va mutaxassislarning amaliyotida qo'llanadigan turli xil qo'l asbob-uskunalar, jihozlar, moslamalarini o'rgatishni, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan vositalar bilan ishlashni, mehnat qonunchiligi xavfsizligi, sanitariya-gigiena qoidalar va yo'l-yo'riqlari asoslarini o'rgatishni ta'minlaydi. SHuningdek, bu davrda o'quvchilarda xalq xo'jaligining va hunarmandchilikning asosiy sohalari bo'yicha maxsus kursolarni o'qitishni tashkil etib, turli xil kasbiy bilimlar berish, amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilishni maqsad qilib qo'yadi. Ushbu kurslarda o'quvchilar kasbiy mahoratlarini takomillashtira borib, tanlagan kasblari

bo'yicha tegishli hujjatlarni olib, bevosita unumli mehnat jarayonida qatnashish imkoniyatiga va huquqiga ega bo'ladilar.

Mehnat ta'limining yuqorida ko'rsatilgan maqsadiga erishishi uchun qo'yidagi vazifalarni hal etishni taqozo etadi:

-turli sohalardagi ishlab chiqarish mazmuniga ega vazifalarni echish, tajribalar o'tkazish, o'lchov-tekshiruv asboblariidan – ma'lumotlardan foydalana olish, mehnat operatsiyalarini bajarish, olingan natijalarni talab etilgani bilan taqqoslash yo'li bilan xulosa chiqarishga o'rgatish;

-o'quvchilarda bilim va mehnatga muhabbat, mehnat ahillariga hurmat hissini singdirish, ularni jamoatchilik, vatanga sadoqat, do'stlik, o'zaro hurmat ruhida tarbiyalash;

-o'quvchilarni bozor iqtisodiyoti qonuniyatlari talablari asosida sifatli, xaridorgir iste'mol mollari, mehnat mahsulotlari etishtirishga odatlantirish, o'zlari etishtirgan mahsulotlarni o'zlari iste'molchiga etkazishlariga o'rgatish, ish boshqaruvchilik (menedjerlik), homiylik, ishbilarmonlik sifatlarini singdirib borish va rivojlantirish. Mehnat ta'limini o'rganish jarayonida o'quvchilar, xalqimiz ruhiyatini yashash tarzini, an'analarini tiklash va rivojlantirish maqsadida xalq hunarmandchiligining kiritilishi milliy qadriyatlar, tarixiy yodgorliklar, xalq ustalarining ko'p qirralari boy merosini o'rganish, o'zlashtirish va amaliy faoliyatlariga qo'llash vazifasini hal etadilar.

Mehnat ta'limining amaliy va ishlab chiqarish mazmunidagi an'anaviy sinfdars mashg'ulotlariga nisbatan shogird-ustoz tizimi – tarbiyaviy mahsuldorligi, samaraliligi, bo'lg'usi hunarmandning shaxsiy xislatlarini shakllanishida, ularning oilalarini moddiy ta'minlanishida hamda tarixiy qadriyatimizning yanada boyishida ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ustoz-shogird tizimi – mashg'ulotlarini tashkil etishni oliy o'quv yurtlaridagi musiqa ta'limida talabalar bilan o'qituvchilarning yakka tartibdagi mashg'ulotlar o'tkazishi bilan taqqoslash mumkin.

Mehnat ta'limida elektron hisoblash texnikasi, mexanizasiyalashtirilgan va elektrlashtirilgan qurilmalar va avtomatikaning qo'llanilishini o'rganish, o'quvchilarning hozirgi zamon ishlab chiqarishidagi avtomatik va dasturli

boshqarish tizimlari, robottexnika va ishlab chiqarish texnikasini, texnologiyasini ta'limning davr talablari darajasi va jahon andozasiga mos holda o'rganilishini ta'minlaydi.

Keyingi vaqtlarda kam e'tibor berilayotgan, hatto yo'qolib borayotgan turli xildagi ta'limi-tarbiyaviy tadbirlar: o'quvchilar ishlab chiqarish jamoalari, maktablararo o'quv ishlab chiqarish markazlari, o'quvchilar mehnat jamoalari, mavsumiy ishlarida va otalik korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatida qatnashishlari va boshqalar mazmunan va shaklan qayta ko'rib chiqilib, qayta ishlab, zamon ruhiga moslashtirilishi va ta'lim tizimi amaliyotiga qo'llanilishi, mehnat ta'limining maqsad vazifalarini amalga oshirishda asosiy shart-sharoitlardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda maktablar, maktabdan tashqari tarbiyaviy muassasalar, oila, jamoatchilik, ishlab chiqarish korxonalari, xalq hunarmandlarining tajribalari hamda o'zaro hamkorlikdagi munosabatlari tiklanib, o'quv jarayonida foydali mahsulot – tovar moddiy ne'matlar etishtirilib, ta'lim muassasalarining bozor iqtisodiyotini amalga oshirishda qatnashishida erishish ham dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Mehnat ta'limini amalga oshirishda ta'limning qo'yidagi tamoyillariga rioya etish talab etiladi: I.Ta'limning asosini tashkil etuvchi tamoyillar:

- Nazariy ta'limni unumli mehnat bilan qo'shib olib borilishi;
- Ta'limning politexnizm asosida qurilishi;
- Ta'limning kasbiy yo'naltirilganligi;
- Ijodiy rivojlantirishga yo'naltirilganligi.

II.Umumdidaktik tamoyillar:

- Amaliyligi;
- Ilmiyligi;
- Tarbiyaviyligi;
- Ijodiyligi;
- Ko'rgazmaliligi;
- Moddiy-texnika bilan ta'minlanganligi;

-Izchilligi;

-Uzviyligi va boshqalar.

Mehnat ta'limi mashg'ulotlari o'zining qator xususiyatlari bilan boshqa fanlardan ajralib turadi.

1.Mehnat ta'limidan o'rganiladigan bilimlar mazmuni bir qancha umumta'lim fanlari (tabiyot, iqtisodiyot, atrofimizdagi olam, fizika, matematika, geometriya, jug'rofiya (geografiya), chizmachilik, kimyo, zoologiya, biologiya, anatomiya, botanika, tarix(hunarmandchilik tarixi), rasm (tasviriy san'at) va boshqalar) mazmunida yoritilgan bilimlar, g'oyalar, nazariyalar va tamoyillarga tayanadi. SHu sababli mehnat ta'limi mashg'ulotlari mavzulari ketma-ketligi yuqoridagi fanlarni o'rganish ketma-ketligiga mos holda uyg'unlashtirilmog'i lozim.

2.Mehnat ta'limi mashg'ulotlari umumta'lim fanlaridan o'zlashtirilgan bilimlarni va o'quvchilarning hayotiy kuzatishlarini amaliyotda, mehnat jarayonida sinab ko'rish uchun o'ziga xos amaliy laboratoriya vazifasini o'tash uchun xizmat qiladi. Bu sohadagi mukammallikni ta'minlash uchun ham mashg'ulotlar ketma-ketligini tanlashda yuqoridagi fanlarning ma'lum bosqichlarini o'rganilgandan keyingina mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tanlash imkoniyati hisobga olinmog'i lozim.

3.Mehnat ta'limi bir qancha umumta'lim fanlariga amaliy laboratoriya, sinov maydonchasi sifatida xizmat qilishdan tashqari uning o'zi ham mujassamlashgan fan hisoblanadi hamda qator mustaqil fanlarni qamrab oladi. Mehnat ta'limi bevosita qamrab oladigan, tayanadigan, ba'zi qismlarni umumta'lim maktablarida o'rganiladigan fanlar jumlasiga qo'yidagilarni keltirish mumkin: materialshunoslik, uyshunoslik, agronomiya asoslari, tuproqshunoslik, mashinashunoslik, texnika va texnologiya asoslari, xalq hunarmandchiligi (naqqoshlik, ganchkorlik, o'ymakorlik, zargarlik va boshqalar), chorvachilik, mexanizasiya, ishlab chiqarish asoslari, qishloq xujaligi, kasb tanlash va boshqalar

4.Mehnat ta'limining amaliyligi va mujassamlashgan o'quv fani ekanligidan uning alohida moddiy, xom ashyo, jihozlar ta'minotiga muhtojligi, o'ziga xosligi

kelib chiqadi. Ushbu ta'limning to'laqonli yo'lga qo'yilishi uchun turli asbob uskunalar, jihozlar, qurilma va moslamalar, shiyponlar, maxsus binolar avtomobil va traktorlar (agregatlar), trenajyorlar, er maydonlari, tajriba sinov va o'quv mashg'ulot maydonlari, materiallar (metallar, metallmaslar, gazlamalar, plastmassalar va hakoza) zarurdir.

5.Ushbu ta'lim sohasi alohida o'quv, didaktik, metodik ta'minotiga egadir: Plakatlar, chizmalar, chizish, o'lchash, rejalash va moslama asboblari, operasion, yo'l-yo'riqli, xavfsizlik, yo'riqnomalar, xaritalar, pasportlar va qurilmalarning guvohnomalari, tarqatmali va ko'rsatmali didaktik vositalar, shablonlar, diafilmlar, o'quv filmlari va boshqalar.

6.Mehnat ta'limining ko'p tarmoqlilik va keng ko'lamdaliligi tufayli turli sohalar bo'yicha kasbiy pedagogik tayyorlangan mutaxassislariga muhtojligi (ushbu sohani tashkil etuvchi o'qituvchi – mutaxassislar kadrlar to'g'risidagi biz dissertasiyamizning 3-bobida batafsil to'xtalamiz).

7.Mehnat ta'limi mashg'ulotlari qo'yidagi tiplarga bo'linadi: a).Nazariy bilimlarni o'zlashtirish; b).Amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish; v).Ishlab chiqarish mashg'ulotlari. Ushbu ta'limda keyingi ikki tip mashg'ulotlarining tashkil etilishi, yo'lga qo'yilishi, ta'minlanishi, butun ta'lim mazmunining o'zlashtirilish sifatini belgilaydi.

Bizning qator yillardan buyon olib borgan kuzatishlarimiz natijasida yuqorida ko'rsatib o'tilgan mehnat ta'limining asosiy xususiyatlariga qo'shimcha ravishda shunday fikr aytishimiz mumkinki, ushbu sohaning har bir bosqichini, mashg'ulotini, mavzusini, mavzu qismlarini o'tishda ham o'ziga xoslik sezilib turishini ta'kidlashimiz o'rinlidir.

Mehnat ta'limining o'ziga xos xususiyatlari, ahamiyati uning ta'lim mazmunini tanlashda, har bir bosqich uchun belgilab olishda namoyon bo'ladi.

Xalq hunarmandchiligining umumta'lim maktablari mehnat ta'limiga kiritilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini tashkil etishning ko'lamini yanada kengaytirishga, shahar va qishlok maktablarida mehnat ta'limi mashg'ulotlarini tashkil etishni yanada yaxshilashga olib keladi. CHunki, ushbu ta'limning

an'anaviy ko'rinishda shahar va qishlok maktablarida mashg'ulotlarni tashkil etishda xalq hunarmandchiligi sohalari taraqqiyoti, ta'lim muassasani urab o'tgan ishlab chiqarish sohaslarini hisobga olib, ularga bog'lanish zarur edi. Xalq hunarmandchiligi esa bevosita xalq xo'jaligi (mahalliy) tarmoqlarga bog'lik bo'lmagan holda o'quvchilarga turli umummehnat, maxsus ko'nikmalarni o'rgatishda didaktik imkoniyatlari behisobdir.

Mehnat ta'limining yana bir xususiyati asosiy mehnat operatsiyalarining qo'lda bajarilishini o'rgatishga imkoniyatlari beqiyosligidir. Mehnat ta'limi o'quvdars tizimiga kiritilayotgan davrda ham (bundan 130 yil ilgari) asosiy maqsad, bolalarning turli mehnat operatsiyalarini qo'lda bajarilishini takomillashtirishni nazarda tutilgan edi. Ammo, fan texnikaning taraqqiyotiga kur-kurona ergashish va ta'limni majburan moslashtirishga urinishlar mehnat ta'limining bevosita kul mehnati mazmunidan chetlashib borishga sabab bo'la bordi. Ishlab chiqarishda elektrlashtirilgan, mexanizasiyalashtirilgan, yarim avtomatlashtirilgan mehnat ta'limi yumushlarining paydo bo'lishi va ularni maktab mehnat ta'limida o'rgatishga urinishlar ushbu sohaning maxalliy sharoitlarda deyarli amalga oshirilmaydigan, mavhum sohaga aylanishiga olib keldi. Ko'pgina qishlok maktablari, tuman markazlaridagi, kurg'onlardagi maktablarda ham (bunday maktablar respublikamizda qariyb 50 foizni tashkil etadi) mehnat ta'limining elektrlashtirilgan va mexanizasiyalashtirilgan yumushlarini bajarishga har qanday sharoitda ham, jumladan, hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida, juda qimmat turadigan uskunalar, stanoklar, qurilmalar, trenajyorlar, minitraktorlar va avtomobillar bilan yalpi ta'minlanish imkoniyatiga ega emaslar. Demak, o'z-o'zidan ma'lumki, "stanoklashtirilgan" ta'minot etarli bo'lmagach, bunday ta'lim mashg'ulotlari ko'ruk gapdan, og'zaki tushuntirishdan iborat bo'lib qolaveradi, shuning uchun, bizning fikrimizcha "stanoklashtirilgan" mehnat ta'limi mazmunini barcha maktablarga o'rgatishni yalpi ravishda tavsiya etilmasligi lozim. Qolaversa, bunday mehnat ta'limini "majburan" urgangan yoshlar o'zlarining kelgusi hayotlarida elektrlashtirilgan, "stanoklashtirilgan" ish o'rinlariga yalpi ravishda ega bo'lishlari ham mavxumdir.

Bizning fikrimizcha, maktab mehnat ta'limi mazmuni asosan, qo'l mehnati yumushlarini bajarishga yo'naltirilsa-yu, ba'zi imkoniyati etarli bo'lgan ta'lim muassasalarigina, ya'ni zavod va fabrikalar xududida joylashgan maktablarga ana shunday "stanoklashtirilgan" ta'limni tashkil qilish tavsiya etilsa, haqqoniyrok bo'lardi. Bunday hollarda, yoshlarning kelgusida ish o'rinlari bilan ta'minlanishlari ham ancha xayotiydashgan bo'lardi.

Mehnat ta'limining biz taklif etayotgan yangi tizimida "texnik mehnat", "xizmat ko'rsatish mehnati" kabi galiz, asossiz jumladan voz kechdik. Masalan, "texnik mehnat" so'zini olib qarasak, sirdan qaraganda texnikani o'rganish mehnati mazmunini anglatganday ko'rinsa-da, amalda, "asboblarning mehnati", "badiiy mehnat", "texnologik mehnat", "traktorlarning mehnati", "mashinalarning mehnati" kabi so'zlarning yanada ko'payishiga zamin yaratadi. "Xizmat ko'rsatish mehnati" so'zi esa, bundan ham mavhumroq, asossizroq bo'lib, qiz bolalardan faqat "xizmatkorlar", "xizmat ko'rsatuvchilar", "tayyorlash zarur" degan ma'noni tushunish mumkin.

Mehnat ta'limida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etishda qo'lda bajariladigan yumushlar mazmunini tanlashda xalq hunarmandchiligining imkoniyatlari nihoyatda cheksizdir.

Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish bo'yicha olib borilayotgan mashg'ulotlarning moddiy, xom ashyo, materiallar bilan ta'minlanishini yo'lga qo'yishda deyarli barcha maktablarda mahalliy imkoniyatlar mavjuddir. Moddiy ta'minot bo'yicha davlat yo'nalishi kuchsizlangan hozirgi davrda ham, keyingi bosqichlarda ham mahalliy xom ashyo ta'minotini o'quvchilar va o'qituvchilar o'z kuchlari bilan bevosita amalga oshirishlari mumkin. Xalq hunarmandchiligining mehnat va kasb ta'limida muntazam o'rganilishi o'g'il va qiz bolalar mehnatini, qishloq va shahar maktablarida muqobil mashg'ulotlarning tashkil etilishini va qolaversa, o'quvchilarning ta'lim muassasasini bitirganlaridan so'ng doimiy ish o'rinlari bilan ta'minlanishlarini ma'lum tartibga soladi. Xalq hunarmandchiligi sohalarini o'rganish va o'rgatish, quruq mehnat yumushlarini bajaradigan "ishchi-robotlar", "ishchi-mexanizmlar" tayyorlashni qisman bo'lsa-da inkor etadi va

ijodiy fikrlaydigan, mustaqil faoliyat ko'rsata oladigan, yuqori darajada insoniylik fazilatlariga ega bo'lgan, muomilali, odob-axloqli insonlarni tarbiyalashda imkoniyatlari juda yuqoridir.

2.3§ Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'quvchilarning mehnat amaliyotini o'tkazishga doir tavsiyalar.

Xalq hunarmandchiligi bo'yicha o'tkazilayotgan mehnat amaliyotida o'quvchilar qo'yidagi texnologik yumushlar (operasiya)ni bajaradilar:

1. Turli xil materiallarni ishlov berishga tayyorlash – yog'och materiallarni zaruriy ulchamlarda qirqish, tozalash, yaltiratish, kuzlarni yunish, materiallarni tekislash, gilamchilik uchun jun va paxtalardan iplar, arqonlar tayyorlash;

2. Zaruriy jihozlarni tayyorlab olish, masalan, gilamchilikda to'quvchilar ish o'rmini, qilich, urma, ayri, urchuk, qaychi va boshqalar; ganchkorlikda xavonchalar, andovalar, skalpel, pichoq, kosacha, suv va boshqalar;

3. Rejalash yoki belgilash – yog'och uymakorligida zaruriy o'lcham va shakllarni belgilab olish, shakllarni chizib olish, shaklli buyum qismlarini tayyorlashda (masalan, xontaxta, chorpoya, kursilar tayyorlashda shaklli oyoqchalar, ustunlar, ustki taxtalar ulchamini belgilab olishda);

4. Turli xil kesib ishlash operatsiyalarini bajarish – yog'och uymakorligida yog'ochlarni uyish, metall uymakorligida metall plastinkalarni, zargarlikda sim va rangli metallarni, do'ppichilik, choponlar va boshqa xil milliy kiyimlarni tikishda gazlamalarni, ipakchilikda iplarni, tunukasozlikda metall plastinkalarni va x.k.;

5. Biriktirish – egar-jabduklar tayyorlashda turli xil qismlarni, imoratsozlikda turli xil tusinlarni, yog'och qismlarni sandiqsozlikda yog'och metall qismlarni, pichoqchilikda pichoq asosini va dastalarini va x.k.;

6. Pardoqlash – xalq hunarmandchiligida buyumlarni tayyorlashda yakuniy operatsiyalardan hisoblanib, buyash, jilvirlash, tikish, o'lchash, silliqlash kabilar yumushlarni qamrab oladi.

M: pichoqchilikda pichoqning metall asosi, qismlari korroziyaga chidamli moddalarga (xrom, nikel) qoplanadi, sandiqsozlikda sirlanadi va x.k.

II-Joriy yo'l-yo'riqlar amaliyotning asosiy davri – ish davrida amaliyot rahbari, murabbiylar, xalq ustalari, ishlab chiqarish ustalari, mehnat ta'limi o'qituvchilari tomonidan olib boriladi. Ushbu yo'l-yo'riqda o'quvchi-amaliyotchilarning mehnat yumushlarini bajarishlari to'g'riligini, qo'yilgan davlat talablariga mos kelishlari, asbob-uskunalaridan to'g'ri foydalanishlarini kuzatib, yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklarni yakka tartibda tuzatib boradilar.

O'qituvchi yosh murabbiylar mehnat yumushlarini namoyish etish, tushuntirish uslubi orqali bu yo'l-yo'riqni olib boradilar.

III-Yozma yo'l yo'riqlar o'quvchi-amaliyotchilarga ma'lum yumushlarni va buyumlarni tayyorlash uslublari ko'rsatilgan, tariflangan smetalar, texnologik, operasion yo'l-yo'riq xaritalari, buyum eskizlari, chizmalari hamda suratlari bo'lishi mumkin. YOzma yo'l-yo'riqlar ish mobaynida o'quvchilarga, har bir kishiga yoki har bir guruh bitta tarqatma material sifatida berilishi mumkin. Ushbu yo'l-yo'riqlarda buyum o'lchamlari, ularning qismlarini tayyorlash uslublari, zaruriy jihozlar, harajatlar miqdori ko'rsatilishi mumkin.

IV-Mehnat xavfsizligi yo'l-yo'riqlari barcha ishlab chiqarish korxonalarida qo'llaniladigan asosiy tadbirlardan hisoblanib, butun amaliyot davomida yoki yakuniy qismlarida o'tkaziladi. Xavfsizlik yo'l-yo'riqlari ishchining xayotini, sog'ligini, ish qobiliyatini saqlab qolish, mehnatni ilmiy tashkil etish, ishchi hunarmandlar sarflayotgan materiallarni tejash maqsadida va ishlatilayotgan asbob-uskunalarining foydalanish muddatini uzaytirish maqsadida, mehnat jaraxatlanishi oldini olish maqsadida qo'llaniladi.

Xavfsizlik yo'l-yo'riqlari qo'yidagi turlarga bo'linadi:

1. Mehnat qonunchiligi – mazkur korxonada ishlagan ishchining huquqiy burch va vazifalari, ta'minlanishi, dam olishi, maoshlari va nogironlik ta'minoti miqdorini aniqlashtirish, mehnatni ilmiy tashkil etish masalalari bilan shug'ullanadi.

Bolalar va qizlar mehnati, iqlimiy, mavsumiy ta'sirlar, ximiyaviy ta'sirlar, mehnatga haq to'lash, ish me'yorlarini belgilash va boshqalar qator yillardan buyon hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

2. Elektr xavfsizligi – turli xil elektrlashtirilgan asboblari yoki mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalar bilan ishlaganda rioya qilinadigan qoidalardir. Bu holda mehnat jarohatlanishlari eng ko'p kutiladigan xavfli holatlar yuzaga keladi.

3. Gaz xavfsizligi – turli xil gazli payvand ishlarini olib borishda, tabiiy gazdan (yoqilg'i) foydalanishda, gaz bilan yuradigan transport vositalarini gaz bilan ta'minlashda, yurishda va boshqa xollarda rioya qilinadigan zaruriy hollardir.

4. Yong'in xavfsizligi – ishlab chiqarishda, turmushda, oilada, jamoat binolarida yong'in chiqishining oldini olishdir. Turli chiqindilar, tez yonadigan vositalardan madaniyatli foydalanish qoidalarini o'rgatish nazarda tutiladi.

5. Suv xavfsizligi – amaliyotchilarning dam olish paytlarida oqar suv xavzalaridan foydalanish va cho'milishlari, oilada, korxonada ichimlik suvlarini tejash, isrof qilmaslik qoidalaridir.

6. Texnika xavfsizligi – ishlab chiqarish jarayonida turli xil texnika, transport, stanoklar mexanizatsiyalashtirilgan, avtomatlashtirilgan vositalardan tejamli foydalanish qoidalarini o'rganish hisoblanadi.

7. Sanitariya-gigiena qoidalari – mehnatni ilmiy tashkil etishning muhim qismi bo'lib, ishchilarning ish o'rinlari tozaligi, yorug'ligi, havosi, zaruriy binolar bilan ta'minlanishi, changlarning, turli chiqindilarning ishchilar salomatligiga va mehnat samaradorligiga zarar etkazmasdan tozalab turishiga doir qoidalardir. YUvinish, ovqatlanish, uxlash, dam olish, o'qish, sport bilan shug'ullanish joylarining sanitariya-gigiena qoidalariga ko'ra tashkil etilishi mehnat unumdorligini oshirishning muhim omillaridan hisoblanadi.

Xavfsizlik qoidalari amaliyot boshlanishidan oldin tayyorgarlik davrida 12 soatlik o'quv dasturini o'rganish sifatida amalga oshiriladi.

V. Yakuniy yo'l-yo'riqlar – amaliyotning asosiy ish davrida har bir ish navbati tugagach, har bir 5,10 kunlik (xaftalik) yakunida va butun amaliyot yakunida o'tkaziladi. Ushbu yul-yo'riqlar davomida murabbiy yoki o'qituvchi (amaliyot rahbari) tayyorlangan buyumlar sifatini yoki bajarilgan mehnat yumushlari to'g'riligini tekshiradi. Xavfsizlik qoidalarining bajarilishini, mehnat

nizomiga rioya qilinishini tekshiradi muhokama qiladi, ish bosqichlari natijalariga yakun yasaladi, yutuqlar rag'batlantiriladi, xato va kamchiliklar ko'rsatib o'tilib, tuzatish yo'llari aytiladi. Mehnat, jamoat, o'quv topshiriqlarining bajarilishi darajasi muhokama qilinadi.

O'quvchilar xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etilayotgan mehnat amaliyotida pedagogik nazoratni tashkil etish, o'tkazish muhim ahamiyatga ega.

Umumta'lim maktablarida xalq hunarmandchiligi bo'yicha mehnat amaliyotini o'tkazishda, tashkil etishda rahbarlik asosiy o'rinlardan egallaydi.

Amaliyotga rahbarlik maktab direktori, direktorning o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha muovini, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar tashkilotchisi, mehnat ta'limi o'qituvchisi, amaliyot o'tkaziladigan korxonaning etakchi mutaxassisi, korxona tomonidan amaliyotga rahbarlik sifatida tayinlangan mutaxassislar, murabbiylar (pedagogik, psixologik, uslubiy bolalar bilan ishlashga ilg'or ishchilar) hamda o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan olib boriladi.

Amaliyot rahbarlarining burch va vazifalari, huquqlari chizmada ko'rsatilgan. Amaliyot rahbarlaridan maktab va korxona rahbarlari amaliyotchilari uchun nazariy mashg'ulotlarni (mehnat xavfsizligi qoidalari, umumiy axborotlar, korxonaning ishlab chiqarish rejalari to'g'risida (olib borsalar, amaliy va ishlab chiqarish mashg'ulotlarini esa murabbiylar va ustalar bajaradilar bajaradilar. Amaliyot rahbarlarining majburiyatlarini tahlil qilish shuni ko'rsatdiki (chizma), ularning faoliyati juda xilma-xil va kasbiy mahorat tayyorgarligi ko'p qirrali bo'lishi zarurdir. Rahbarlar pedagogik, ma'muriy, uslubiy, psixologik, texnikaviy-texnologik, moliyaviy-ho'jalik, kasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishlari va huquqiy, iqtisodiy, aholi o'sishi bilan bog'liq bo'lgan bilimlarni bilishlari, amaliy, maxsus, umummehnat ko'nikma va malakalariga ega bo'lmoqlari lozim.

Amaliyotga rahbarlik daromadli korxonada ishlab chiqarish, unumli mehnat sharoitida, xalq xo'jalik rejalari, bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobatbardosh, bozorbop maxsulotlar etishtirish, xo'jalik yuritishning zamonaviy usullarini amaliyotga qo'llash sharoitida olib boriladi.

Hozirgi davrda rahbarlikda qo'yidagi psixologik-pedagogik, ma'muriy, tashkiliy-taqsimlash uslublari keng tarqalgan bo'lib, biz ba'zilariga qisman to'xtalib o'tamiz:

Pedagogik psixologik rahbarlikning maqsadi - o'quvchilarning kasbiy, umummehnat va maxsus ko'nikma, malakalarini rivojlantirish, chuqurlashtirish va kengaytirilishi uchun zaruriy shart-sharoitlar yaratish, mehnat ta'limi o'qituvchilari, murabbiylarining ijodiy faoliyatlarini tashkil etishdan iborat. Yuqorida bosh maqsaddan rahbarlikning bevosita amalga oshiradigan vazifalari kelib chiqadi: amaliyot o'tkazish obekti (korxona)ni to'g'ri tanlash, amaliyot qatnashchilari (o'quvchilar va rahbarlar)ni belgilash: o'quv dasturlari, uslubiy qo'llanmalar, tezkor (operativ) texnikaviy-texnologik xujjatlar, me'yoriy, xulosaviy fikrlar, hisobotni qabul qilish; amaliyot davomida o'quvchilarning ishlashi va ta'lim olishlari uchun eng qulay vaziyatlar yaratish; amaliyot rahbarlarining kasbiy mahorat va uslubiy rahbarlik darajasining eng mahsuldor natijasiga erishish; o'quvchilar va amaliyot rahbarlarining mehnat qilishi va dam olish uchun sanratriya-gigiena talablari, xavfsizlik qoidalari, nafosatli, qulay, ishchan, psixologik-tarbiyaviy, pedagogik muhit yaratilishi, o'quvchilar mehnat guruhlarini shakllantirish va har biri o'rtasida musobaqa o'tkazishga erishish; amaliyot rahbarlarining faoliyatini uzluksiz o'rganib borish.

Amaliyot davrida rahbarlikning turli zamonaviy shakl va usullari qo'llaniladi. Maktab va korxona rahbarlari amaliyot davrida guruhli va yakka tartibdagi ko'rinishlarda o'quvchilar mehnat jamoalari bilan doimiy mashg'ulotlar olib boradilar.

Rahbarlikning guruhli shakllariga pedagogik va ishlab chiqarish, uslubiy kengashlar, rahbarlar qoshidagi kengashlar, ishlab chiqarish yig'inlari, mehnat jamoasining umumiy yig'ilishi va majlislar kiradi. Yakka tartibda olib boriladigan rahbarlikka buyruqlar, ko'rsatmalar, yo'l-yo'riqlar, yo'llanmalar, suxbatlar, axborotlar, mehnat operatsiyalari va buyumlarini, obektlarni, ko'rsatmali vositalarni namoyish etish kiradi.

Rahbarlikning pedagogik-psixologik uslublari amaliyotchi o'quvchilarning shaxsiy, insoniylik xislatlarining shakllanishiga, axloqiy, ruhiy, jismoniy, mehnatsevarlik, tabiatga muxabbat, tejamkorlik, huquqiy, nafosat fazilatlarining shakllanishiga ta'sir etishning yo'llari va vositalaridir. Ushbu uslublardan eng muhimlari: kuzatish, suhbat, maslahat, ishontirish, tushuntirish, jazolash, tanqid qilish va boshqalar hisoblanadi.

Amaliyotning pedagogik rahbarlari maktab rahbarlari, mehnat ta'limi o'qituvchisi va murabbiylar hisoblanadi. Ular turli xil tarbiyaviy o'quv tadbirlarni amalga oshiradilar, pedagogik-psixologik, uslubiy vaziyatlarni yaratadilar, tahlil qiladilar, ta'lim-tarbiya va ishlab chiqarish, unumli mehnatining birgalikda qo'shib olib borilishini tayminlaydilar. Yuz berishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarni oldindan ko'ra bilishlari, o'qishni, tarbiyani, mehnat va dam olishni rejalashtiradilar. Pedagogik rahbarlikni amalga oshiruvchilar umumta'lim fanlari – fizika, kimyo, geografiya, biologiya, chizmachilik, anatomiya, gigiena kabi fanlar bilan mehnat ta'limining unumli mehnat bilan uzviy bog'liqligini ta'minlaydilar.

Rahbarlikning iqtisodiy uslublari – mehnatni moddiy rag'batlantirishi ko'rinishida aks etadi. Ularga qo'yidagilar kiradi: o'quvchilar amaliyotchilarni mehnat natijalariga qarab oylik maosh, haq, to'lash, mukofotlash, mehnatni me'yorlash, malakali ishchi-amaliyotchilarni qo'shimcha oylik maosh belgilash, turli xil qimmatbaho buyumlarni, sanatoriya va dam olish uylariga yullanmalar borish va boshqalar kiradi.

Rahbarlikning tashkiliy-taqsimlash yoki ma'muriy uslublariga turli xil buyruqlar, ko'rsatmalar, kurgazmalar, qarorlar, muhokamalar natijalarini xujjatlashtirishlari kiradi.

Amaliyotga rahbarlikning keyingi ikki guruhi uslublarini tashkilot rahbarlari olib boradilar.

Kuzatishlarimizni olib borish jarayonida o'tkazgan kuzatishlarimizdan, ish tajribalarimizdan ma'lum bo'ldiki, umumta'lim maktablarida mehnat ta'limi va hunarmandchilik bo'yicha mehnat amaliyotlarini o'tkazish juda qoniqarsiz ahvolda.

Mehnat ta'limidan va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, jumladan bozor iqtisodiyoti talablari ham inobatga olinishi zarur.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligi sohalari bo'yicha tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarning qo'yidagi qator didaktik afzalliklari mavjud:

a) SHaklan va mazmunan xilma-xil faoliyat turlarini qamrab oladi;

b) O'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro muloqotlarida deyarli to'liq mustaqilliklarini ta'minlaydi;

v) Vaqt taqsimlanishida o'quv-dars tizimi kabi ma'lum majburiy qolip asosida emas, o'quvchilar bilimlarni o'zlashtirishlari, ko'nikmalarni shakllantirishlari va malakalarni rivojlantirilishiga qarab ixtiyoriy belgilanishini ta'minlaydi;

g) O'quv reja va dasturida ko'rsatilgan ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchilik maqsadlarining nisbatan to'liq, atroflicha amalga oshirilishiga erishiladi;

d) O'quvchilar o'zlarining ruhiy, aqliy, jismoniy imkoniyatlarini to'liq ishga sola oladilar, o'qituvchi esa yakka hukmronlikdan maslahatchilik vazifasiga o'tadi;

e) O'quvchilar, o'zlari mehnati natijasini o'zlari ko'radilar, kelgusida egallamoqchi bo'lgan kasb-hunarlari mashaqqati, oson, qiyinchiliklarini, qulayliklarini, bevosita ishlab chiqarish sharoitida sinab ko'radilar;

yo) Xalq hunarmandchiligi bo'yicha tashkil etiladigan tadbirlarining xom ashyo, jihozlar bilan ta'minlanishida maxalliy, xududiy, mintaqaviy imkoniyatlar juda muldir.

Mehnat ta'limi va xalq hunarmandchiligidan tashkil etiladigan o'quv-tarbiyaviy tadbirlarni o'tkazish uchun o'qituvchilar, xalq ta'limi tashkilotchilari, murabbiy va ustalarni tayyorlaydigan o'quv yurtlari reja va dasturlariga ham tegishli o'zgarishlar, tuldirishlar kiritilishi, milliy ma'naviy, zamonaviy tomondan takomillashtirish zarur.

O'quv-tarbiyaviy tadbirlarni tashkil etishda ularning samaradorligini oshirish uchun oila, ta'lim muassasasi, korxonalar va maxalla-jamoatchilikning o'zaro aloqadorligini ta'minlash va mustahkamlash zarur bo'ladi.

Mehnat ta'limi va hunarmandchilikdan tashkil etiladigan didaktik imkoniyatlarni sarflab bo'lgan an'anaviy shakllardan voz kechish va yangiliklarni zamonaviy ruhda qayta ishlab, ilg'or pedagogik texnologiyalarni tadbqiq etish lozim.

XULOSA

1. O'tkazgan kuzatishlarimizdan, tadqiqotlarimizdan ma'lum bo'lishicha, xalq hunarmandchiligining mehnat va kasbga yo'naltirish tizimidagi o'rnini belgilash, ushbu tizimning mavjud an'anaviy ko'rinishi, tuzilishi va mazmunini milliyalashtirish asosida qayta qurish bilan barobardir.

Buning uchun xalq hunarmandchiligining mehnat va kasbga yo'naltirish ta'limining juda ko'p xususiyatlariga, o'zligiga, amalga oshirish jarayoniga bevosita mos keladigan jihatlarni qidirib topish kerak bo'ladi. Masalan, bu sohalarni amalga oshirish jarayonining asosan qo'l mehnatiga asoslanganligi, moddiy xom ashyo ta'minotining qulayligi, asbob, uskuna, jihozlar va moslamalar bilan ta'minlashning mahalliy sharoitlarida qiyin emasligi deyarli barcha davrlarida murakkab bo'lgan ta'minot muammosining osonlikcha hal etilishiga olib keladi. Bundan tashqari, turli hunarlarni o'rgatish jarayonida ustalar o'z shogirdlariga avvalo, odob-axloq, insoniy fazilatlarni – kattalarga hurmat, kichiklarga izzatda bo'lish fazilatlarni singdirishni, ya'ni hunarmand-shogird odobini o'rgatishni asosiy maqsad qilib qo'yilgan. Chunki, hunarmand ustalar buyumlarni tayyorlashning barcha bosqichlarida ham turli toifadagi kishilar bilan hunarmandchilik texnologiyasining qiyidagi bosqichlarida: a) buyumlarni ishlov berishga tayyorlash; b) asosiy ishlov berish; d) pardozlash; e) tayyorlangan buyumlarni sotuvga chiqarishda mijozlar, xaridorlar bilan turli muomala munosabat odobida bo'ladilar.

2. Demak, o'quvchilarni hunarmandchilik sir-asrirlari bilan tanishtirishda, avvalo ma'lum doirada odob-axloq qoidalar bilan tanishtirish, tarbiyalash muhim ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Biz, tadqiqotlarimizni o'tkazish jarayonida o'quvchilarni xalq hunarmandi sifatida shakllantirishda sinf-dars mashg'ulotlarining pedagogik imkoniyatlari, sinfdan va maktabdan tashqari

ishlardan to'garaklarni mazmunan takomillashtirish, yangilash muammolariga ham e'tiborni qaratdik.

TAKLIF VA TAVSIYALAR:

Milliy qadriyatlarimizdan hisoblangan xalq hunarmandchiligining o'g'il bolalar uchun sohalarini o'rganish va o'rgatishga bag'ishlangan tadqiqotlarimizni o'tkazish jarayonida quyidagi xulosalarga keldik:

1. Xalqimizning tarixi, o'tmishi, taraqqiyoti bilan bevosita bog'liq bo'lgan milliy qadriyatlarni biron aniq sohalarini misolida chuqur va atroflicha o'rganmoq lozim. Biz aniq yo'nalish sifatida xalq hunarmandchiligining ba'zi sohalarini tanlab oldik.
2. Xalq hunarmandchiligining turli sohalarini o'rganish va o'rgatishda uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimining biror bosqichida aniq ta'lim sohaga tayangan holda xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatish uchun eng qulay didaktik tizimlardan hisoblanadi.
3. O'quvchilarni mehnat va kasblarga tayyorlash jarayonida xalq hunarmandchiligini o'rganishda, avvalo, o'quv-dars mashg'ulotlari asosiy tayanch-manba sifatida, so'ngra esa, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatini mazmunan va shaklan yangilanishi lozim. Biz bunday tayanch manbalari sifatida nazariy va amaliy mashg'ulotlar va to'garaklarni tanladik.
4. Xalq hunarmandchiligini mehnat va kasbga yo'naltirish faniga tayangan holda o'rganish va o'rgatish uchun quyidagilarga asosiy e'tiborni qaratish lozim:
a) ushbu sohalarini yagona tizimga keltirish; b) o'quv metodik, moddiy xom ashyo ta'minotini yaratish; d) ilg'or tajribalar va pedagogik texnologiyalarni o'rganish va qo'llash; e) o'quvchilarni yosh jinsiy, aqliy, jismoniy, ruhiy va boshqa xususiyatlariga e'tibor berish; f) har bir mavzu, bobni o'rganilayotganda tarixiylik, mafkura, ma'naviy va tarbiyaviylik tamoyiliga rioya qilish.
5. Pedagogik jarayonni amalga oshirishda ta'lim muassasalari, mahalla-jamoatchilik, ota-onalar, o'quvchilar va o'qituvchilar jamoalari, otaliq korxonalar yagona ta'limiy-tarbiyaviy maqsad atrofida birlashmoqlari lozim.

6. Uzluksiz ta'lim va tarbiya tizimida xalq hunarmandchiligini o'rganish va o'rgatishda, avvalo, bo'lg'usi hunarmand o'quvchida shakllantiriladigan insoniy, axloqiy, madaniy va xususiy kasbiy xislatlar pedagogik tashxis qilinmog'i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. - Toshkent., Sharq, 1998. - 64 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Ta'lim to'g'risidagi qarorlari. 1-qism. Toshkent., 1998. - 106 b.
3. Davlatov K., Vorobyov A., Karimov I. Mehnat va kasb ta'limi nazariyasi hamda metodikasi. - Toshkent., O'qituvchi, 1992. - 320 b.
4. Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov Q.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Ahmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006. - 192 b.
5. Mehnat ta'limi metodikasi / Magdiyev O., Boltaboyev S.A., O. Avazboyev, V.N. Sattorov. - Toshkent., TDPU, 2000. - 92 b
6. Umumiy o'rta ta'lim standarti va o'quv dasturi. O'z RXTV «Ta'lim taraqqiyoti axborotnomasi. 1-7-maxsus sonlar. 1997 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 31 oktyabrdagi «Xalq badiiy hunarmandchiliklari va amaliy bezak san'atini yanada rivojlantirishni davlat yo'li bilan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari haqida»gi qarori.
8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 15 avgustdagi «Mahalliy sanoatni boshqarishni takomillashtirish to'g'risidagi Farmoni.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Yirik sanoat korxonalari bilan kasanachilikni rivojlantirish asosida ishlab chiqarish va xizmatlar o'rtasida kooperasiyani rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni.
10. O'.Q.Tolipov, B.I.Muranov, Sh.S.Sharipov Mehnat talimi fanidan yangi tahrirdagi davlat talimi standarti, takomillashtirilgan o'quv dasturi mavzuiy rejalashtirish. –T.: XTV. O'z PFITI. 2004, 2006, 2010 y. 110 b.

Internet saytlari

Ziyonet. Uz

19. Qosimov Q. Naqqoshlik- T.O'qituvchi, 1992.
20. Nabiev M. Rangshunoslik. – t.: O'qituvchi 1995.
21. Internet manbalari. 1. www.ziyoinet.uz; 2. www.mvd.uz